


**SOBIRJONOVA MUXLISA SOBIRJONOVNA**

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "YOLG'IZLIK" VA  
"HIJRON" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**MONOGRAFIYA**



**DENOV-2025**

SOBIRJONOVA MUXLISA SOBIRJONOVNA

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “YOLG‘IZLIK” VA  
“HIJRON” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK  
XUSUSIYATLARI

MONOGRAFIYA

Denov-2025

35824

“yolg‘izlik”

UDK: 811.512.133/811.111:81'22

BBK: 81.2 O'z-5+81.2 Angl-5

**M.S.Sobirjonovna**

O'zbek va ingliz tillarida yolg'izlik va hijron konseptining lingvokulturalogik xususiyatlari [Matn] monografiya. M.S. Sobirjonovna – Andijon. INNOVATIVE PUBLICATION 2025.– 147 bet.

**Mas'ul muharrir:**

Karimov Jasurbek

**Taqrizchilar:**

**F.H.Yuldashev** – f.f.d. (DSc), Navoiy davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori v.b.

**M.J.Isroilova** – f.f.f.d. (PhD), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrası katta o'qituvchisi

Ushbu monografiyada O'zbek va ingliz tillarida yolg'izlik va hijron konseptining lingvokulturalogik xususiyatlari imkon darajada ilmiy tadqiq qilindi. Tadqiqotimizdan o'zbek tili fani o'qituvchilari, nofilologik Oliy o'quv yurtlarida rusiyzabon guruhi talabalariga mashg'ulot o'tishda foydalanishlari mumkin.

*Monografiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrası 2025-yil 26-noyabrdagi 4-sonli bayonnoma qarori, institut Ilmiy kengashining 2025-yil 28-noyabrdagi 4-sonli bayonnoma qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-09-532-0

© Sobirjonova M.

© "INNOVATIVE PUBLICATION" nashriyoti, 2025

## KIRISH

Jahon tilshunosligi va tarjimashunosligida yangi ilmiy yo'nalishlar, ayniqsa kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya va konseptologiya rivojlanmoqda. Bu yo'nalishlarda inson tafakkurining til orqali ifodalanishi, milliy madaniyat, mentalitet va qadriyatlar bilan bog'liq tushunchalarning lingvistik tahliliga katta e'tibor berilmoqda. Shu nuqtai nazardan, "yolg'izlik" va "hijron" kabi hissiy-konseptual birliklar dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu tushunchalar umuminsoniy bo'lsa-da, turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi. Ularning til vositasida qanday ifodalanishini, semantik tuzilishini va badiiy matnlarda aks etish shakllarini o'rganish hozirgi tilshunoslik uchun muhim. Turli milliy madaniyatlarga oid badiiy va paremiologik matnlar asosida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish ularning milliy tafakkurdagi o'rmini, semantik yadro va periferiyasini, madaniyatlararo o'xshashlik va farqlarini aniqlashga yordam beradi. Bunday yondashuv lingvistik konseptologiyaning nazariy asoslarini boyitish bilan birga, tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va semantik adekvatlik muammolarini hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida milliy-madaniy konseptual sohaga oid konseptlarning badiiy matnlarda qanday aks etishi, poetik matn doirasida shakllanishi va ular asosidagi antroposentrik talqinlarga doir keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar yozuvchining ijodiy faoliyatida milliy mentalitetni qanday ifoda etgani, asarning mazmuniy qatlamini shakllantirishda kognitiv tuzilmalar qanday rol o'ynashi, poetik matnning konseptual tuzilishi va uning tarjimada qayta yaratilishi muammolariga ilmiy asosda yondashish imkonini yaratmoqda. Natijada muallifning individual konseptual sohasi, ya'ni u orqali shakllanadigan ma'no, tasavvur va estetik tafakkur tizimi aniq lingvistik va uslubiy ko'rsatkichlar asosida tavsiflanmoqda. Bu esa o'z navbatida zamonaviy lingvistik ong doirasida konseptual tahlilning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Mamlakatimizda esa inson huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan Yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lida tub islohotlar amalga oshirilmogda. Ushbu jarayonda adabiy-badiiy matnlar orqali inson fenomenini o'rganish, milliy qadriyatlar, ma'naviyat va madaniyatni aks ettiruvchi poetik matnlarni lingvokulturologik tahlil qilish, ularning tarjima-dagi ifodasi, semantik o'zgarishlarini aniqlash dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonda "xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish"<sup>1</sup> masalasi kun tartibiga qo'yilgan. Bu esa tarjimashunoslik, konseptual tahlil va madaniy semantika sohalarining rivojiga yangi ilmiy yo'nalishlar olib kirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF.6097-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 11-martdagi 139-son "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi. 09.10.2019. № 209 (7439).

rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish"ning ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi, tilda bahoning ifodalanishi, turli xil konseptlar hamda ularning nazariy tadqiqiga bag'ishlangan talqinlar xorijlik olimlardan V.fon Gumboldt, R.V. Langaker, J.P. Lakofflar tadqiqotlarida kuzatiladi<sup>2</sup>.

MDH tilshunosligida esa V.A. Maslova, S.G. Vorkachev, R.N. Popova, I.F. Sternin, N.M. Kravsova, M.R. Galiyeva, N.N. Baldirov, A.A. Potebnya, A.G. Vejbitskaya, A.T. Xrolenko G.R. Derjavina, V.I. Karasik, N.D. Arutyunova, E.S. Kubryakova, E.A. Fedotova, L.I. Zaxarova, Y.D. Apresyan, Y.S. Stepanov, N.F. Alefirenko, O.A. Komilovlar tomonidan turli tillardagi konseptlar ilmiy asosda tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Gumboldt V. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts. 1819-1829. - 301 s.; Langaker R. V. Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. 1990. - 321 s.; Lakoff G., & Johnson M. Metaphors we live by. - University of Chicago Press, 1980. - P. 35.

<sup>3</sup> Maslova V. A. Введение в когнитивную лингвистику. - Москва: Флинта Наука, 2007. - С: 296; Воркачев С.Г. Концепт «счастья» в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа: Монография. - Краснодар: изд-во Кубан. гос. гос. техн. ун-та, 2002. - 142 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. - Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 2000. - 30 с.; Кравцова Н.М. Концепт «человек телесный»: когнитивное моделирование и переносы (на материале сопоставительного анализа древнерусского и древнеанглийского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Тюмень, 2008. - 30 с.; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/суз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 2010. - 28 с.; Болдырев Н.Н. Концептуальная основа языка // Когнитивные исследования языка. Вып. IV. Концептуализация мира в языке: коллектив. моногр. - М.: Ин-т языкознания РАН, Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2009. - 460 с.; Карасик В.И. Определение и типология концептов // Этнокультурная концептология: сб. науч. тр. / Калм. гос. ун-т. - Вып. 1. - Элиста: Изд-во Калм. ун-та, 2006. - 332 с.; Лексико-семантическая репрезентация концепта «помолванье» в английской и русской терминосистемах (диахронический аспект): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Москва, 2022. - 28 с.; Карасик, Владимир И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002. - 95 с.; Потебня, Александр А. Мысль и язык. - Харьков, 1862. - P. 62.; Wierzbicka Anna. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. - Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. - P. 53.; Xrolenko A.T. O'zbek xalq so'zlarini // O'zbekiston Tarixiy-Roman Jurnal. 2025. № 7. - С. 15-20; Артюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка, событие, факт. - Москва: Наука, 1988. - 123 с.; Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. - М.: Изд-во Московского ун-та, 1997. - 245 с.; Fedotova Elena A. «Лингвокультурологическая парадигма как наиболее эффективный подход в преподавании РКИ // В Русский язык на перекрестке эпох: традиции и инновации в русистике. Часть 2. - Ереван: РАУ, 2023. - С. 136-140.; Zaxarova Marina V. Концепт "Судьба" в русской лингвокультуре // Апресян Ю. Д. Человеческий фактор в языке: опыт исследования языковой семантики. - Москва: Языки русской культуры, 1995. - 89 с.; Степанов Ю.С. Семносфера: Аспекты лингвистической антропологии, семантики и культурологии. - Москва: Языки славянской культуры, 2004. - 145 с.; Alefirenko Nikolay Filippovich. Lingvokulturologiya: tsennostno-semanticheskoe prostanstvo yazyka. - Moskva: Flinta, Nauka, 2010. - P. 106.; Корнилов О.А. Лингвокультурология (основные понятия теории). - М.: ИТДГК "Гнозис", 2003. - 288 с.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda turli konseptlarini lingvokulturologik tadqiq etish, ijtimoiy-madaniy tadqiqi bilan bog'liq qator ilmiy ishlar e'lon qilindi. Tilshunoslik ilmidagi konseptlar yuzasidan tilning turli xil parametrlarida kognitiv pragmatik tadqiq etish asosiy xususiyatlari, aniqligi, haqiqatning praksiologik talqinlari, shuningdek, til birliklari konsept masalalarida A.A. Abduazizov, D.U. Ashurova, Sh.S. Safarov, M.R. Galiyeva, O'.Q. Yusupov, M.N. Xolbekov, A.E. Mamatov, M.I. Rasulova, G'.S. Qambarov, G'.M. Hoshimov, N.K. Turniyozov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

Shu vaqtgacha yaratilgan tadqiqotlarda aynan "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining leksik-semantik, lingvomadaniy xususiyatlariga ko'ra tahlil etilmagan. Ushbu tadqiqot ishida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga atroficha munosabat bildirildi, zarur o'rinlarda foydalanildi.

**Tadqiqotning oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Tilshunoslikning dolzarb masalari" mavzusi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, ularning milliy-madaniy kontekstda qanday ifodalanishini qiyosiy tahlil asosida ochib berishdan iborat.

<sup>4</sup> Abduazizov A.A. О составных частях когнитивной лингвистики // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2007. – № 3. – Б. 34.; Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики/Филология масалалари. – Ташкент, 2004. № 4. – С. 24-28.; Сафаров Ш. Когнитивная лингвистика. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 98 с.; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/ сўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира. Дисс... канд. фил. наук. – Ташкент, 2010. – 130 с.; Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. – 127 с.; Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в контексте перевода, критики и восприятия). Автореф. дисс... док. филол. наук. – Ташкент, 1991; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти ниманда? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари: илмий-амалий анжумани материаллари. – Ташкент, 2000. –Б. 56.; Расуллова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – 268 с.; Камбаров Ф.С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланishi (шахслараро муносабат асосида). Фил. фан. номз... дисс. – Ташкент, 2008; Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор, Турниёзов Н.К. таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарканд, 2010. – Б. 12-18.

### Monografik tadqiqotning vazifalari:

olaning lisoniy manzarasida lingvomadaniy birliklarning voqelanishini o'rganish;

jahon tilshunosligida lingvomadaniy birliklar tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlarni qiyosiy o'rganish;

"yolg'izlik" va "hijron" konsepti konseptosferasiga kiruvchi leksik birliklarini tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarini ifodalovchi lisoniy vositalarning o'xshash va noo'xshash jihatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlari mohiyatini ochib beruvchi leksemalarning sinonimlar tarkibini tasniflash;

ingliz va o'zbek tillarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlari lingvomadaniy mohiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy matnlar, shuningdek, paremiyalar (jumladan, maqollar va aforizmlar) tizimi tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** o'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari, ularning ifodalanish vositalari va madaniy-konnotativ xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, struktural va statistik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'zbek tilida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlari ilk bor lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinib, ushbu konseptlar tarkibidagi ayriqliq, yolg'izlik va uzlatga chekinish semantik maydonlari konseptosfera modeli doirasida aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlariga oid yadro va periferik zonalarga ajratilgan konsept maydonlari qiyosiy-lingvomadaniy tahlil asosida shakllantirilgan va ularning umumiy va milliy-differensial xususiyatlari ochib berilgan;

chog'ishtirilayotgan tillarda "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarini ifodalovchi

leksik birliklarning semantik turlari, sinonimik munosabatlari va konnotativ xususiyatlari statistik va jadval asosida tahlil qilinib, ularning lingvokulturologik ahamiyati asoslab berilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi "yolg'izlik" va "hijron" konseptlari paremiyalar va badiiy matnlar materiallari asosida tahlil etilib, ularning diskursdagi emotsional-estetik qiymati va madaniyatlararo tafakkurdagi roli aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining konseptosfera modeli ishlab chiqildi, bu model orqali ularning yadro va periferik tarkibiy qismlari ajratilib, til va madaniyat aloqasi asosida qiyosiy tahlil qilindi;

ingliz va o'zbek tillarida ushbu konseptlarni ifodalovchi sinonimik leksik birliklar tasniflandi, ular semantik va stilistik mezonlar asosida guruhlarga ajratilib, lug'atshunoslik va tarjima amaliyoti uchun zarur manba shaklida taklif etildi;

paremiyalar va badiiy matnlar tahlili asosida konseptlarning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berildi, bu esa madaniyatlararo adekvat tarjima va til o'rgatishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin;

tadqiqot natijalariga asoslangan tavsiyalar lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, tarjima nazariyasi kabi fanlarni o'qitish jarayonida va amaliy darsliklar yaratishda foydalanish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qo'yilishi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning tavsifiy, qiyosiychoq'ishtirma, konseptual, kontekstual-pragmatik, kognitiv-diskursiv tahlil metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr, xulosa, natijalarning respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan xulosalarning vakolatli ilmiy tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvomadaniy, emotsional va kognitiv munosabatlar, inson

tafakkurining atrof-olam bilan munosabati manzarasining lisonda ifodalanishi, konsept va uning turlari kabi masalalar tadqiqida, turli izohli lug'atlarni yaratishda vosita bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalardan "Kognitiv tilshunoslik", "Lingvokulturologiya", "Umumiy tilshunoslik", "Uslubiyat", "Matn lingvistikasi", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek va ingliz tilida yolg'izlik va hijron konseptlarining lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida:

o'zbek tilida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlari ilk bor lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinib, ushbu konseptlar tarkibidagi ayriqliq, yolg'izlik va uzlatga chekinish semantik maydonlari konseptosfera modeliga hamda qiyoslanayotgan tillaridagi "yolg'izlik" va "hijron" konseptlari paremiyalar va badiiy matnlar materiallari asosida tahlil etilib, ularning diskursdagi emotsional-estetik qiymati va madaniyatlararo tafakkurdagi rolga doir xulosalaridan 2020-2023-yillarda bajarilgan 1-OT-2019-42-raqamli "O'zbek va ingliz tillarining elektron poetik lug'atini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihaning so'z yasalishi, nomlash qismini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 17-fevral 04/1-579-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu qiyosiy tahlillar paremiyalar va badiiy matnlar materiallari asosida o'zbek tilining elektron poetik lug'atini boyitishga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlariga oid yadro va periferik zonalarga ajratilgan konsept maydonlari qiyosiy-lingvomadaniy tahlil asosida shakllantirib va ularning umumiy va milliy-differensial xususiyatlariga doir xulosalaridan 2019-2022-yillarda bajarilgan A OT-2019-10 "O'zbek tilida neyning: me'yoriy huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihaning so'z yasalishi, nomlash qismini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 17-fevral 04/1-578-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy loyihaning so'z yasalishi, nomlash

qismini takomillashtirilgan, ayniqsa poetik leksika va emotsional soʻz birliklari nuqtayi nazaridan yangi yondashuvlar taklif etilgan;

chogʻishtirilayotgan tillarda “yolgʻizlik” va “hijron” konseptlarini ifodalovchi leksik birliklarning semantik turlari, sinonimik munosabatlari va konnotativ xususiyatlari statistik va jadval asosida tahlil qilinib, ularning lingvokulturologik ahamiyatiga doir xulosalaridan 2021-2023-yillarda bajarilgan “Oʻzbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihagini amalga oshirishda foydalanilgan (Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2025-yil 18-yanvardagi 28/01-01-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzbek tilida konseptlar orasidagi ichki bogʻlanishlar yanada aniq shakllantirilib, tarjima va lingvistik tadqiqotlarda qoʻllanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari sifatida 14 ta ilmiy ish eʼlon qilingan, jumladan, Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 8 ta maqola (4 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Monografiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

## I BOB. OʻZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KONSEPTUAL BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI

### 1.1. Jahon tilshunosligida lingvokulturologik birliklarning oʻrganilishi

Maʼlumki, har bir kishi milliy anʼanalar, til, tarix, adabiyotni oʻz ichiga olgan oʻziga xos madaniyatga tegishli. Xalqaro iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar tilning madaniyatni aks ettirish vositasi sifatida talqin qilinishiga olib keldi. E. Sepir taʼkidlaganidek, til madaniyatni oʻrganishda yoʻl koʻrsatuvchi vositadir. Tilni oʻrganishda nafaqat soʻzlar, til birliklari va nutqini, balki oʻrganilayotgan til mamlakatining madaniyati, dunyoqarashi, turmush tarzi va urf-odatlarini ham bilish muhimdir. Bunda oʻz navbatida tilshunoslikda yangi sohaning, yaʼni lingvomadaniyatshunoslik evolyutsiyasining paydo boʻlishiga olib keldi<sup>5</sup>.

Konsept – atrofda dunyo haqidagi bilimlarni va shaxsning faoliyati natijasida olingan tajribani oʻz ichiga olgan, umumiy madaniy va individual qadriyatlarni aks ettiruvchi shaxs ongidagi aqliy birlikdir<sup>6</sup>.

Til va madaniyat oʻrtasidagi determinizm, yaʼni bir-birining oʻzaro bogʻliqligi muhim masaladir. Shuning uchun, turli mamlakatlar olimlari til va madaniyat masalasini turli yoʻnalishlarda oʻrganishlari tabiiy. Bu muammoni taniqli tilshunos olimlar (Yu. Sorokin, V. Teliya, E. Vereshchagin, A. Veybitskaya, V. Kostomarov, D. Olford, D. Cheyms va boshqalar) va faylasuflar (G. Brutyana, E. Markaryan va boshqalar), psixologlar (L. Vygotskiy, A. Leontev, V. Petrenko, P. Gulviste)<sup>7</sup> oʻz tadqiqotlarida atroflicha oʻrganishgan. Bu masala nutq madaniyatiga oid tadqiqotlarda muhim oʻrin tutadi (Yu. Skvortsov, E. Begmatov, A. Mamatov, B. Oʻrinboyev va boshqalar). Keyingi yillarda tilshunoslikning alohida tadqiqot sohasi sifatida rivojlanishi (A. Krasnix, V. Maslova, D. Gudkov, D. Ashurova) bu masalaning dolzarbligiga olib keldi.

<sup>5</sup> Sapir E. Selected works on linguistics and cultural studies. – M., 1993. – P. 259–265.

<sup>6</sup> Шушмарченко Е.А. Образные репрезентации концепта одиночество в произведениях Р. Брэдбери // Когнитив. исследования языка. – 2015. – № 21. – С. 407–409.

<sup>7</sup> Zavershneva E. The problem of consciousness in Vygotsky's cultural-historical psychology. In A. Yasnitsky, R. Van der Veer & M. Ferrari (Eds.) // The Cambridge Handbook of Cultural-Historical Psychology. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P. 63–97.

Globalashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi madaniyatlararo aloqalar sonining doimiy o'sishiga olib keladi. Turli madaniyatlar vakillarining muvaffaqiyatli hamkorligiga hissa qo'shish uchun tushunmovchilik sabablarini aniqlash va bartaraf etish va madaniyatlararo muloqot paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olishga xizmat qiladi. Madaniyatlararo muloqotni optimallashtirishning zaruriy sharti kommunikantlarning kognitiv asoslari hamjamiyati bo'lib, u chet el til madaniyatining ba'zi asosiy tushunchalari tizimi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi, chunki u o'z xalqining kommunikativ xatti-harakatlarini keltirib chiqaradi.

Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A. Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Shuningdek, lingvokulturologik yondoshuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida ham oxirgi o'n yilliklarda salmoqli paydo bo'la boshladi. Masalan, Z.I. Saliyevaning nomzodlik ishi o'zbek va ingliz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-talimiy harakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag'ishlangan. Xususan, N. Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "Aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya emas, balki kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui demakdir". Ma'lumki, lingvokulturologiya fanining obyektini xalq madaniyatining tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekvivalent leksika va lakunalar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarining miqlashgan ko'rinishlari: arxip va miqlar (asotir va rivoyatlar), tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning

paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar hamda o'zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllarini tashkil etadi<sup>8</sup>.

Yolg'izlik va hijron konseptlarining lingvomadaniy tadqiqini o'rganish uchun avvalo, bu tushunchalarning lug'aviy ma'nolariga e'tibor qaratish lozim.

O'zbek tilining izohli lug'atida qisqa ifodalangan ta'rifi berilgan: "Yolg'izlik – birorta ham sherigi yo'q, bir o'zi, yakka, tanho"<sup>9</sup>. Psixologik lug'atda kengroq tavsifni uchratishimiz mumkin: "Yolg'izlik – psixogen omillardan biri bo'lib, insonning o'zgalardan yakkalangan vaziyatidaga noodatiy sharoitda namoyon bo'ladigan emotsional holatidir"<sup>10</sup>. Mazkur ta'riflar yolg'izlik konseptini ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishga, insonning emotsional holatlarining turlicha yuzaga kelishining sabablari va mohiyatini anglashga, yolg'izlik konseptini ijobiy va salbiy ko'rinishlarda tahlil qilish an'anasini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bundan tashqari keltirilgan ta'rif "yolg'izlik" so'zi bilan bir qatorda "tanholik" va "yakkalanish" so'zlarining ham qo'llanilishi lozimligini e'tirof etadi. Ular o'rtasidagi mazmuniy chegaralarni yanada aniqlashtirish uchun ushbu so'zlarning kelib chiqishiga (etimologiyasiga) e'tiborni qaratib tahlil qilish lozim.

Dunyoning madaniy qiyofasini o'rganishda lingvomadaniyatshunoslar (N.M. Terebixin, V.N. Toporova, G.D. Gachev) bir qancha holatlarni keltirib o'tadilar:

- 1) til umuminsoniy va ularning o'ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan dunyoning madaniy qiyofasini o'z ichiga oladi;
- 2) dunyoning madaniy qiyofasida madaniyatga xos ma'nolar, madaniy qimmatli dominantlar, madaniyatning ma'lum turlarini tashkil etuvchi, tilda saqlanib qolgan va qo'llaniladigan tushunchalar bo'ladi;

<sup>8</sup> Mamadjonova N.M. Lingvokulturologik birliklarning nutqdagi o'rni // "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli 10-son ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6323272>

<sup>9</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 2 toml. / S.F. Akabirov, T.A. Aliqulov, S.I. Ibragimov va boshq. Z.M. Magruflov tahriri ostida. – M.: Rus yuz., 1981. 1 tom. A-256-b KRILLDA

<sup>10</sup> Психология общения. Энциклопедический словарь. // под ред. А.А. Бодалева. – М.: Когито-центр, 2011. – С. 267

3) dunyoning madaniy qiyofasi yagona til madaniyati qolipidagi yagona obrazni ifodalamaydi, chunki turli millat vakillari turli qadriyatlarga ega bo'lishi mumkin;

4) dunyoning madaniy qiyofasi nafaqat individual, balki jamoaviy ongda ham mavjuddir<sup>11</sup>.

Yu.S. Stepanov tushunchalarni ilmiy (izolyatsiya qilingan) va ilmiy bo'lmagan (yoki badiiy) turlarga ajratadi, A.P. Babushkin esa ularni quyidagicha tasniflaydi:

1) kognitiv rasmlar – bu odamlarning jamoaviy / milliy yoki individual ongidagi tasvirlar to'plami;

2) konseptual sxemalar leksik vositalar orqali ma'lum bir shaklga bo'lingan dunyoning pertseptiv va kognitiv ko'rinishini shakllantiradi;

3) giperonim tushunchalar – ramziy ko'chish, ya'ni konnotatsiyaga ega bo'lmagan tushunchalar;

4) konsepsiya-ramka – uyushmalar xotirasida saqlanadigan sahnalar sxemalari to'plami;

5) konsepsiya-ssenariy (skript) – so'z bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan stereotip epizodlar, voqealar ketma-ketligi, dinamikasi haqidagi ma'lumotlarning fikrlashda namoyon bo'lishi;

6) idrok – bu muayyan munosabatlar va tuzilmalarni kutilmagan tarzda anglash;

7) Kaleydoskopik konsepsiya migratsiya natijasida vujudga keladi va doimiy va barqaror assotsiativlarga ega emas, chunki u ba'zan kognitiv rasm shaklida, ba'zan ramka yoki ssenariyda aylanadi<sup>12</sup>.

Z.D. Popova va I.A. Sternin tushunchalari tas'nifiga ko'ra:

1) predmet yoki hodisaning umumlashgan emotsional-vizual tasviri, konseptual obrazlar;

<sup>11</sup> Karasik V.I. Language matrix of culture. – Volgograd, 2012.

<sup>12</sup> Babushkin A.P. Types of concepts in the lexico-phraseological semantics of the language. – Voronezh, 1996. –P. 45–68.

2) aniq umumlashtirilgan fazoviy-grafik yoki kontur sxemasi bilan ifodalangan tushunchalar;

3) predmet yoki hodisaning umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi, ularning oqilona tavsifidan iborat tushunchalar;

4) konsepsiya-ramka (tasavvurning ko'p komponentli va har tomonlama ifodasi, obyekt yoki hodisa haqidagi standart bilimlar to'plami);

5) konsepsiya-skript (skript) ma'lum bir vaqtga tegishli bir nechta stereotipik epizodlar ketma-ketligi;

6) konsepsiya-gestalt – murakkab xarakterdagi yaxlit tizimdagi funksional fikrlash tizimi, ongdagi alohida hodisalarning xilma-xilligini tartibga soluvchi hodisa<sup>13</sup>.

Muayyan xalq madaniyatining tilda aks ettiruvchi birliklarning yagona chegarasini belgilab bo'lmaydi. Turli vositalar verbal va noverbal tarzda madaniy xoslikni ifoda etishga xizmat qiladi. Lingvokulturologiyada asosiy birliklar quyidagicha guruhlarga ajratiladi:

1-rasm.



<sup>13</sup> Popova Z.D., Sternin I.A. Cognitive linguistics. – Moscow, 2007. – P. 45–46.

Madaniyat tilda ko'zga tashlanadigan va bu tilning faqat grammatikasida emas, balki uning obrazli ifodalarda, tushunchalarni qanday nomlashda, tuyg'ularni qanday ifodalashda aks etadi. Lingvokulturologiyada bunday til birliklari xalq dunyoqarashi, qadriyati va madaniy stereotiplarini namoyon etadi. Ular turli shakllarda – metafora, ibora, maqol, matal, o'xshatish va uslubiy vositalarda yuzaga chiqadi. Ayniqsa, yolg'izlik va hijron kabi chuqur hissiy tushunchalar bunday birliklar orqali xalq madaniyatini yorqin ifodalaydi.

Til – bu madaniyatning aks-sadosidir. Yolg'izlik va hijron kabi chuqur tuyg'ular esa til orqali o'ziga xos xalqona ifodani topadi. Har bir lingvokulturologik birlik xalq ongining ko'zglasidirki, unda sevgi ham, iztirob ham, umid ham mujassam.

Tilning qiymat-semantik makonining zamirida aytilganlardan kelib chiqadigan bo'lsak, maxsus madaniy kategoriyalar, qiymatlar deb ataladi. Rus tadqiqotchilaridan G.G. Slisshkin tomonidan quyidagi qadriyatlar lingvokulturologiya nuqtayi nazariga kiradi:

hayotiy: hayot, salomatlik, hayot sifati, tabiiy muhit va boshqalar;

ijtimoiy: ijtimoiy mavqei, mehnatsevarligi, boyligi, kasbi, oilasi, bag'rikenglik, gender tengligi va boshqalar;

siyosiy: so'z erkinligi, fuqarolik erkinligi, qonuniylik, fuqarolar tinchligi va boshqalar;

axloqiy: yaxshi, sevgi, do'stlik, burch, or-nomus, odob va boshqalar;

diniy: Xudo, ilohiy qonun, imon, najot va boshqalar;

estetik: go'zallik, ideal, uslub, uyg'unlik.

Tilda ifodalanish darajasiga ko'ra ma'naviy qadriyatlar umuminsoniy, milliy, mulkiy, guruhli, oilaviy, individual-shaxsiy bo'lishi mumkin<sup>14</sup>.

Ilmiy fan sifatida lingvokulturologiya haqida birinchi tadqiqotlar allaqachon M.M. Pokrovskiy, G.V. Stepanova, D.S. Lixachev va Yu.M. Lotman tadqiqotlarida uchratish mumkin.

Milliy (etnik, bizning terminologiyamizda) ildizlarning inson hayotidagi ahamiyati 20-asr boshidagi ko'plab rus faylasuflari tomonidan ta'kidlangan (masalan, Berdyaev, Ilyin, Trubetskoy asarlariga qarang). N.A. Berdyaevning (1990) so'zlariga ko'ra millatdan tashqari, individual mavjudot sifatida tushunilgan, insoniyatning mavjudligi mumkin emas<sup>15</sup>.

Kognitiv tilshunoslik sohasining asoschilari Ronald Langaker o'z bayonotida madaniy bilim va grammatika o'rtasidagi munosabatni ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, "Kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi madaniy tilshunoslikka qaytish sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Kognitiv lingvistik nazariyalar madaniy bilimlarni nafaqat leksikaning asosi, balki grammatikaning markaziy qirralari sifatida ham tan oladi"<sup>16</sup>. Langackerning ta'kidlashicha, "Ma'no konseptualizatsiya sifatida aniqlangan bo'lsa-da, barcha darajadagi idrok ham mujassamlangan, ham madaniy jihatdan singdirilgan". Amalda esa tilning konseptual darajasini shakllantirishda madaniyatning roli va tilning barcha darajalariga konseptualizatsiya tizimi sifatida madaniyatning ta'siri Las-Vegasdagi Nevada universitetidan lingvistik antropolog Gari B. Palmer tomonidan "Madaniy tilshunoslik nazariyasi tomon" (1996) nashr etilgunga qadar yetarli darajada va aniq ko'rib chiqilmagan<sup>17</sup>. Ushbu kitobda Palmer kognitiv tilshunoslikni til va madaniyatni o'rganishda bevosita qo'llash mumkinligini ta'kidladi. Palmer taklifining markazida "Til – bu tasvirga asoslangan og'zaki ramzlar o'yini" va bu tasvir madaniy jihatdan qurilgan. Palmerning ta'kidlashicha, madaniy jihatdan aniqlangan tasvirlar hikoya, obrazli til, semantika, grammatika, nutq va hatto fonologiyani boshqaradi. Palmerning tasvir tushunchasi faqat vizual tasvir bilan chegaralanmaydi. Palmerning asosiy diqqat e'tibori kognitologiya va lingvokulturologiyaga qaratiladi. Lingvokulturologiya tadqiqida, lingvistika, kulturologiya, kognitologiya bilan bir qatorda, mantiq, pragmatik, antropologiya, psixologiya singari fan tarmoqlarining o'rnini ham unutmash lozim.

<sup>15</sup> Бердяев Н. А. Русская идея. — Москва: «Республика», 1990. — С. 45.

<sup>16</sup> Langacker R.W. Concept, Image and Symbol // The Cognitive Basis of Grammar. — Berlin, N.Y., 1991. — P. 28–33.

<sup>17</sup> Palmer S. Fundamental aspects of cognitive representation // Lawrence Erlbaum Associates. — P. 1978 — P. 259–303.

<sup>14</sup> Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты. — Волго-град: Перемена, 2004.



U qo'shimcha ravishda quyidagilarni ta'kidlaydi: "Fonemalar murakkab toifalarda joylashtirilgan og'zaki tasvirlar sifatida eshitiladi; so'zlar tasvir-sxemalar, sahnalar va ssenariylarga nisbatan ma'noga ega bo'ladi; gaplar tasvirga asoslangan konstruksiyalardir; nutq o'z-o'zidan refleksi tasvir bilan boshqariladigan jarayon sifatida paydo bo'ladi; dunyoqarash esa hammasini o'z ichiga oladi"<sup>18</sup>.

Palmerning taklifi antropologik tilshunoslikda uchraydigan uchta an'anaviy yondashuvni kognitiv tilshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlarga tatbiq etishni taklif qildi: Kognitiv tilshunoslikni markazi bo'lgan uchta an'anaviy yondashuvga bog'lash mumkin.

Antropologik tilshunoslikka: Boaz tilshunosligi, etnosemantika (etnofan) va nutq etnografiyasini o'z ichiga oladi. Nemis-amerikalik antropolog Frans Boas nomini olgan Boas tilshunosligi tilni odamlarning ruhiy hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi sifatida ko'rgan. Boas tillar tajribalarni turlicha tasniflashini va bu lingvistik toifalar ma'ruzachilarning fikrlash shakllariga ta'sir qilishini ta'kidlaydi<sup>19</sup>.

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat haqidagi qarashlar ushbu tafakkur maktabiga tegishli bo'lgan til va madaniyat inson tafakkurini shakllantiradi degan nazariy pozitsiyadan tortib, inson tafakkurini til va madaniyat ta'sirida deb hisoblashgacha bo'lgan nuqtayi nazargacha barchasida e'tibor inson omiliga qaratiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, birinchisi ko'pincha Sapir va Uorf kabi olimlarga tegishli bo'lsa-da, so'nggi o'n yilliklarda boshqalar bu ikki tadqiqotchining qarashlari haqida ancha murakkab va nozikroq ma'lumotlarni taqdim etishdi<sup>20</sup>.

Nutq etnografiyasi yoki muloqot etnografiyasi asosan Dell Xayms (masalan, 1974) va Jon Gumperz (masalan, Gumperz va Hymes, 1972) ishlari bilan bog'liq bo'lib, nutqning madaniy jihatdan o'ziga xos vositalari va usullarini o'rganadi. Keyms kommunikantlarning kommunikativ ijro etish usullarida sotsial-madaniy

<sup>18</sup> [https://www.researchgate.net/profile/Stephen-Palmer/publication/232060739\\_Visual\\_perception\\_and\\_world\\_knowledge\\_Notes\\_on\\_a\\_model\\_of\\_sensory-cognitive\\_interaction/links/0fcfd5126b869257dd000000/Visual-perception-and-world-knowledge-Notes-on-a-model-of-sensory-cognitive-interaction.pdf](https://www.researchgate.net/profile/Stephen-Palmer/publication/232060739_Visual_perception_and_world_knowledge_Notes_on_a_model_of_sensory-cognitive_interaction/links/0fcfd5126b869257dd000000/Visual-perception-and-world-knowledge-Notes-on-a-model-of-sensory-cognitive-interaction.pdf)

<sup>19</sup> Boas n.d. "The relation of Darwin to anthropology", notes for a lecture, Boas papers (B/B61.5) American Philosophical Society, Philadelphia. Published online by Herbert Lewis 2001b.

<sup>20</sup> Sapir E., and Whorf B.L. The Sapir-Whorf Hypothesis //Language, Thought, and Reality. 1956. – P. 25–30

kontekstning rolini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy hayotni yuritish uchun zarur bo'lgan kompetentsiya nafaqat Homskiy tilshunoslari o'rgangan lingvistik kompetentsiya turini o'z ichiga oladi, u ushbu omillarni muhokama qilishni turti xil ijtimoiy-madaniy kontekstlarda tildan foydalanishning "tegishli" me'yorlari bo'yicha kompetentsiyani o'z ichiga olgan kommunikativ kompetentsiya rubrikasi ostida joylashtirishni taklif qildi<sup>21</sup>.

Yuqorida ta'kidlangan antropologik yondashuvga muvofiq antropologik yondashuvning mohiyati har bir xalq madaniyatining ichki qadriyatini tan olish, shuningdek, yer yuzidagi barcha madaniyatlarning teng qadriyatini tan olishdan iborat. Bu yondashuv L. Bernardning madaniyat konseptsiyasida juda aniq ifodalangan. Uning tushunchasiga ko'ra, inson tomonidan yaratilgan hamma narsa, u moddiy obyektlar, tashqi xatti-harakatlar, ramziy xatti-harakatlar yoki ijtimoiy tashkilot bo'ladimi hammasi madaniyat hisoblanadi. K. Uislerning tushunchasi unga yaqin bo'lib, madaniyat jamiyat yoki qabila tomonidan amal qiladigan turmush tarzidir<sup>22</sup>. Antropologik yondashuvning mohiyati har bir xalq madaniyatining ichki qadriyatini, shuningdek, yer yuzidagi barcha madaniyatlarning teng qadriyatini tan olishdan iborat.

Sotsiologik yondashuv madaniyatni har qanday jamiyat hayotini tashkil etish va shakllantirish omili sifatida izohlaydi. Ma'lumki, har bir jamiyatda uning hayotini tartibsiz emas, balki uyushgan rivojlanish yo'li bo'yab yo'naltiradigan ma'lum madaniy yaratuvchi omillar mavjud. Madaniy qadriyatlar jamiyatning o'zi tomonidan yaratilgan, ammo keyinchalik ular jamiyatning rivojlanishini ham belgilaydi, uning hayoti tobora ko'proq u tomonidan ishlab chiqarilgan qadriyatlarga bog'liq bo'la boshlaydi. B. Malinovskiy madaniyatga shu ruhda ta'rif beradi, unga ko'ra madaniyat ixtirolar, narsalar, texnik jarayonlar, g'oyalar, urf-odatlar va qadriyatlar meros bo'lib qoladi<sup>23</sup>. Madaniyatning ijtimoiy tashkiliy maqsadi uning

<sup>21</sup> Chomsky Noam. Kasher, Asa (ed.). Linguistics and Cognitive Science: Problems and Mysteries. – Oxford: Blackwell. – P. 50

<sup>22</sup> Bernard L. Culture and Society. 1982. – P. 78–89.; Uysler K. The Nature of Culture. 1980. – P. 45–50.

<sup>23</sup> Malinowski B. Dynamika przemian kulturowych. // Studium stosunków rasowych w Afryce. – Warszawa, 1958. – S. 165.

V. Bekket ta'rifining asosidir: madaniyat – bu ijtimoiy aloqalarni tartibga soluvchi va hayotiy tajribani umumiy talqin qilish imkonini beradigan kuchli e'tiqodlar, qadriyatlar va xatti-harakatlar normalari<sup>24</sup>. Madaniy bilish madaniy guruh a'zolarining vaqt va makon bo'yicha o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan madaniy bilimlarni o'z ichiga oladi. Bu yerda oddiy paydo bo'lish ma'nosidan tashqari, madaniy bilish atamaning texnik ma'nosida paydo bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, madaniy bilish – bu tizim qismlari (guruh a'zolari) o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan, uning qismlari (ayrim a'zolarining bilish tizimlari) yig'indisidan ko'proq bo'lgan bilishdir. Barcha paydo bo'lgan tizimlar singari, madaniy bilish ham dinamikdir, chunki u tegishli madaniy guruhning avlodlari ichida va avlodlari o'rtasida, shuningdek, ushbu guruh a'zolarining boshqa tillar va madaniyatlar bilan bo'lgan aloqasiga javoban doimiy ravishda muhokama qilinadi.

Avvalo, bu doira madaniyat tushunchasining mavhumligidan qochadi va buning o'miga madaniy jihatdan qurilgan konseptualizatsiyalarni o'rganishga qaratiladi. Tahlilda madaniy sxemalar, madaniy kategoriyalar va madaniy metaforalar kabi analitik vositalari uchun kognitiv fan va kognitiv tilshunoslik kabi bir nechta asosiy fanlarda asosiy tushunchalar sifatida o'rin oladi. Ushbu tahliliy vositalar madaniy konseptsiyalarni tizimli va qat'iy tekshirishga imkon beradi. Bundan tashqari,<sup>25</sup> ular inson tillarining o'ziga xos xususiyatlarini ular mustahkamlangan madaniy konseptualizatsiya bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan essenistik va reduksionistik tendentsiyalarga kelsak, madaniy bilish va madaniy konseptsiyalarning nazariy modeli, birinchi navbatda, kommunikantlarni tekshirishdan ko'ra, madaniy konseptualizatsiyalarni o'rganish va keyin madaniyatlarni odamlarga yoki odamlarni madaniyatlarga bog'lash orqali ulardan qochadi. Shuningdek, u madaniy konseptsiyalarni ma'ruzachilar tomonidan teng taqsimlangan emas, balki guruh a'zolari o'rtasida geterogent tarzda taqsimlangan deb hisoblaydi. Til ham, madaniyat

<sup>24</sup> С. Беккет в российском лингвокультурологическом пространстве: к проблеме перевода с английского и французского языков. – Екатеринбург, 2007. Вып. I. – С. 83–95.

ham nutq jamoalari bo'ylab taqsimlanishning o'xshash modelini namoyish etadi va ularning hech biri ma'ruzachilar tomonidan bir xilda tutilmaydi.

Frank and Gontier fikricha, madaniy idrok va uning tilda instantsiyasi aspektlarini o'rganishda ayniqsa foydali bo'lgan analitik vositalar orasida madaniy sxema, madaniy kategoriya mavjud. Avvalroq muhokama qilingan madaniy bilish nuqtayi nazariga muvofiq, ushbu analitik vositalar madaniy bilishning jamoaviy yoki makro darajasida, shuningdek, individual yoki mikro darajadagi mavjud sifatida ko'riladi. Madaniy konseptualizatsiya va ularning tilda mustahkamlanishi madaniy bilishga xosdir. Madaniy idrok modeli, madaniy konseptualizatsiya va tilning bu shakllantirilishi 2-rasmda diagramma tarzda jamlangan.

2-rasm.




Diagramma til, madaniy konseptualizatsiya va madaniy bilish o'rtasidagi yaqin aloqani aks ettiradi. Ko'rinib turibdiki, morfosintaktik xususiyatlardan tortib pragmatik va semantik ma'nolargacha bo'lgan tilning turli xususiyatlari va darajalari madaniy sxemalar, madaniy kategoriyalar va madaniy metaforalar shaklida madaniy konseptualizatsiyaga kiritilishi mumkin. Keyingi bo'limda til va ushbu madaniy konseptualizatsiya turlarining har biri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik batafsil ko'rib chiqiladi.

Lingvokulturologiyaning ushbu va boshqa mavjud ta'riflarini tahlil qilish quyidagilarni aniqlashga imkon berdi:

lingvokulturologiya tilshunoslik va kulturologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, sintezlovchi xususiyatga ega;

lingvokulturologiya asosiy e'tiborni tilda ifodalangan madaniy faktlarga qaratadi;

lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga mansub, shuning uchun uning nazariy umumlashtirish natijalari ona va chet tillarini o'qitish jarayonida amaliy qo'llanilishi mumkin;

lingvokulturologiyani o'rganishning asosiy yo'nalishlari: (a) lingvistik shaxs; b) til madaniy qadriyatlarni semiotik tarzda ifodalash tizimi sifatida.

Bizning tushunishimizcha, zamonaviy lingvokulturologiya madaniyat obyektlarini tilda ifodalash usullari va vositalarini, muayyan xalqning mentalitetini tilda ifodalashning o'ziga xos xususiyatlarini, tilda qiymat-semantik toifalarni aks ettirish usullarini, til birliklari semantikasida madaniyatini o'rganadigan ilmiy fandır.

Lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda lingvokulturologik birliklar tadqiqi ham salmoqli o'rin tutadi. Xususan, muqobilsiz leksika va lakunalar, o'xshatish va metaforalar, stereotiplar, geshtalt, nutqiy etiket, nutqiy muomala singarilar lingvokulturologiya birligi sifatida sinxron aspektida tadqiq etildi.

Tilda turli stereotip birliklarni o'rganish masalasi ham ancha oldin boshlandi. Voqelik obyektlarini idrok etish va ularni o'zbekumlashtirish jarayonida stereotiplar, shu jumladan o'ziga, butun etnik guruhiga va boshqa til madaniyati vakillariga nisbatan stereotiplar shakllanadi. Insonni milliy til madaniyati taqozo etgan stereotiplar qurshab oladi<sup>25</sup>. "Stereotip" atamasini birinchi marta ilmiy foydalanishga amerikalik sotsiolog va jurnalist V. Lippman kiritgan bo'lib, u uni yetishmayotgan ma'lumotlarni to'ldirishga mo'ljallangan voqelik parchasining sxematik, soddalashtirilgan tasviri sifatida belgilagan. Obyektlarni tanish yoki

<sup>25</sup> Семашко Т.Ф. Стереотип как фрагмент языковой картины мира // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2014. № 2 (32). в 2-х ч. Ч. II. – С. 176–179.

g'alati va g'ayrioddiy deb belgilash, biroz tanishni juda yaqin va biroz g'ayrioddiyini butunlay begona deb ko'rsatishdir<sup>26</sup>. Oldindan stereotip shaxsning biror narsaga aqliy bahosi, bu tegishli noxolis xatti-harakatlarda aks etishi mumkin. Stereotiplar hammada mavjud turli xil modifikatsiyalar shaklida jamiyatning sohaları hisoblanadi. Ilmiy lingvistik adabiyotda voqelikni stereotiplash va toifalash yoki stereotipni atrofdaqi voqelikni o'zbekumlashtirishning deyarli muqarrar natijasi sifatida ko'rib chiqish mavjud. P. Shryoder konseptsiyasida "stereotip" umumlashtirilgan tajribaning har qanday shaklidir<sup>27</sup>.

Ushbu yondashuv tarafdorlari o'z nuqtayi nazarini atrofdaqi voqelikning inson idroki uchun o'ta murakkabligi bilan ta'kidlaydilar, shuning uchun odamlar uning qisqartirilgan modeli bilan ishlaydilar. O'zbekumlashtirish ma'lum bir borliqni mavhumroq hodisaning alohida holati sifatida qabul qilishni nazarda tutadi. Dunyo tartibining murakkabligi va inson tajribasining cheklanganligi toifalarga bo'linish jarayonining muqarrarligini belgilaydi<sup>28</sup>. Yangi hodisalarga nomlar berilishi kerak, ular dunyoning shakllangan rasmiga, lingvo-aqliy kompleksning tuzilishiga kiradi. Shunday qilib, so'z yoki nomi ma'lum bir etnik madaniyat dunyosining bir parchasini tovush va grafik ramkada umumlashtirishdir. Aristotel toifasining klassik modeli toifaning aniq chegaralarini, bir xil maqomni, barcha toifa a'zolarining ekvivalentligini nazarda tutadi<sup>29</sup>. Shuning uchun, agar biror kishi stereotipni toifalash bilan tenglashtirish pozitsiyasiga rioya qilsa, bu model bunday jarayonning barcha obyektlarini ekvivalent xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ingliz tilida, xususan, amerikacha so'zlashuv versiyasida "You are a dog!" ("Sen itсан!") ma'lum bir sarguzashtlarni boshidan kechirgan, qandaydir muvaffaqiyatga erishgan odamga qaratilgan (bu holda itning stereotipi uning biriga

<sup>26</sup> Lippman W. Public Opinion. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1922. – P. 104.

<sup>27</sup> Schröder P. Sprachliches Funktionieren und interaktive Funktion von Stereotypen in einer Güteverhandlung vor dem Schiedsmann / P. Schröder // Das Güteverfahren vor dem Schiedsmann. Soziologische und kommunikationswissenschaftliche Untersuchungen. – Köln, 1987. – S. 667–722.

<sup>28</sup> Goodman Mandelbaum D. (ed.) Selected Writings of Edward Sapir in Language, Culture and Personality. – University of California Press, 1949. – 617 p.

URL: [https://books.google.ru/books?id=NGi6VQqGjR2cC&dq=Sapir+E.+Selected+Writings+of+Edward+Sapir+in+Language+Culture+and+Personality&hl=ru&source=gbs\\_navlinks\\_s](https://books.google.ru/books?id=NGi6VQqGjR2cC&dq=Sapir+E.+Selected+Writings+of+Edward+Sapir+in+Language+Culture+and+Personality&hl=ru&source=gbs_navlinks_s) (accessed 29 April 2020).

<sup>29</sup> Vilinbakhova E.L. Materials for the lecture course "Linguistic study of stereotypes": a teaching tool. – St. Petersburg: St. Petersburg State University, 2015. – 72 p.

bog'liq. O'zbek tilida esa "Sen itsan" haqorat semasiga ega. Pastkashlik, xudbinlik, razillik singlarlarni ifodalashda "it ekansan", "sen itsan" so'zlari qo'llaniladi. Demak, it stereotipi o'zbek madaniyatida ikki xil shakllangan birinchisi, uning sodiq va vafodorligi bo'lsa (It vafo-xotin jafu, itday vafodor), ikkinchisi, yuqorida ta'kidlanganidek, insonga xos bo'lmagan ishlarni qiluvchi pastkash singari.

Aksincha, biror muvaffaqiyatga erishgan, biror ishni maromiga yetkazgan kishiga nisbatan "Barakalla", "Arslon", "Burgut" so'zlari qo'llanilishi mumkin.

Umuman aytganda lingvokulturologik birliklardan stereotiplar masalasi, ayniqsa, gender stereotiplar tadqiqotlarda atroflicha o'rganilgan<sup>30</sup>. Biroq turli madaniyatlarda stereotiplarning maishiy turmush bilan bog'liq holatlarini o'rganish, qiyoslash masalasi hali uzoq izlanishlarni talab etadi.

Jahonda o'xshatishlar va lakunalarni yirik monografik ko'lamda o'rgangan olimlar salmog'i katta. Etnopsixolingvistika doirasida Y.A. Sorokin va I.Y. Morkovina tomonidan taklif qilingan umumiy "lakunalar" nazariyasi taqqoslanayotgan lingvomadaniy sohada ekvivalentning yo'qligi hodisasini "lakunalar" deb belgilaydi<sup>31</sup>, ya'ni "lakunalar bittada mavjud bo'lgan narsadir". Shuningdek, lingvomadaniy sohada ham yetishmaydi". Ushbu ta'rif Y.M. Vereschagin va V.G. Kostomarov tomonidan o'rganilgan ekvivalent lug'at bilan lakunalarni aniqlashga imkon beradi, chunki ikkala atama ham bir madaniyatda mavjud bo'lgan va ma'lum bir til birligi bilan ifodalangan, ammo boshqa madaniyatda mavjud bo'lmagan hodisalarni tavsiflash uchun mo'ljallangan, binobarin, uning asosiy belgisi tizimida – til bo'ladi.

Biroq "lakunalar" va ekvivalent lug'atning yetishmasligi haqidagi mulohaza, bildiriladi. Ushbu hodisa hali yetarlicha o'rganilmagan. "Lakunalar" tushunchasi "ekvivalent yetishmaydigan lug'at" tushunchasidan ancha kengroqdir, chunki birinchisi L.S. Barxudarovning tadqiqot ishlarida qayd etilgan "qo'yib yuborish" hodisasini o'z ichiga oladigan tarjima nazariyasidir, chunki u til va mavzu

<sup>30</sup> Shifman L. va Tsuria S. "Gender and Language: Theories and Research". 2019.

<sup>31</sup> Сорокин Ю.А. Лакуны: еще один ракурс рассмотрения // Лакуны в языке и речи. Сб. научн. тр. – Благовещенск, 2003.

darajasidagi so'zlarni shunchaki almashtirish emas<sup>32</sup>. Bu hodisa bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir matnda muallifning individual badiiy uslubining namoyon bo'lishiga olib keladi.

Dunyoga bo'lgan qarashlari bilan belgilanadi, hamda davr estetikasi, madaniyati va kundalik hayotining ta'siri va badiiy adabiyot tarjimasini murakkablashtiradigan ma'lum bir etnik guruhga mansub adabiy asarning etnik ranglanishidir. Eng qiziqarli lakunalar – bu adabiy asarlar mualliflari tomonidan qo'llaniladigan etnik rangli lug'at va etnik yoki ruhiy tabiatning realiyasi bilan bog'liq bo'lganlar. Bunday til birliklarini tarjima qilish qiyin, chunki bu hodisalar tilda mavjud emas. Ularning tarjimasini tarjimon tomonidan hech qanday muhim ma'lumotga ega bo'lmagani uchun qiyin va ahamiyatsiz deb hisoblanishi mumkin.

Lingvokulturologik birliklardan miflar, mifologemalar tilning lingvokulturologik fondi sifatida bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Miflar noma'lum vaqtlarda, favqulodda vaziyatlarda yoki muhim vaziyatlarda ishtirok etgan xudolar yoki g'ayritabiiy mavjudotlarning o'ziga xos hikoyalari sifatida ko'riladi. Mifdagi shakl mazmun bilan bir xil bo'ladi. Makovskiy (2014) ibtidoiy tafakkurga xos bo'lgan ikkita asosiy naqshni aniqlaydi: sababiy bog'liqlikning yo'qligi va o'tmish va hozirgi munosabatlar.<sup>33</sup> Mif konseptual dunyoqarash sifatida voqelik obyektlari haqidagi individual va etnik bilimlar majmuini o'z ichiga oladi va u yoki bu dunyo haqidagi milliy bilimlar darajasida ifodalanadi. Mifologik tafakkur yordamida dunyoni idrok etish va tizimlash orqali inson qandaydir qonuniyatlarni aniqlashga va tushunarsiz olamni ma'lum bir me'yor va tizimga keltirishga harakat qilgan. Jahonda mifologlashtirilgan til birliklari tahlili

<sup>32</sup> Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М., 1975.

<sup>33</sup> Makovskiy M.M. Language – Myth – Culture. // The Symbols of Life and the Life of Symbols. – Moscow: Inst. of Russ. lang. n. aft. V.V. Vinogradov, Russ. Acad. Sci. [In Russ].

A.Aydarxon<sup>34</sup>, O.I. Bykova, O. Rakitina<sup>35</sup>, R.Xayrullina<sup>36</sup>, I.Robert<sup>37</sup>, A.Stavitskiy<sup>38</sup> va R. Syamililar<sup>39</sup> tomonidan tadqiq etilgan.

Nominalizm afsonaviy mentalitet uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, mifologik dunyoqarashning o'zagini ifodalovchi va arxetipik obrazlarni aks ettiruvchi ismlar (otlar, nomlar) mifologik obrazlarning realizatsiyasi bo'lib, ular odatda mifologema deb ataladi. Mifologik tafakkur tafakkurning ajralmas qismi bo'lib, uni amalga oshirish milliy-madaniy dunyoqarashning mifologik konseptual sohasini tashkil etuvchi mif va mifologemalarda amalga oshiriladi.

Jahonda lingvokulturologik birliklar tahlili aynan lingvokulturologiya doirasida emas, balki turli fanlar negizida sinxron tarzda tahlil va tadqiq etilgan.

## 1.2. Lisoniy birliklarning konseptual tadqiqi

XX asr oxirida jahonda filologik bilimlarning yangi sohasi bo'lgan lingvokulturologiyaning paydo bo'lishi gumanitar fanlar siklidagi ilmiy paradigmaning o'zgarishidir, chunki lingvistik tadqiqotlarda tizimli-semantik yondashuv taraqqiyoti uning belgisi ostida zamonaviy tilshunoslik uzoq vaqt davomida rivojlanmoqda. Shuningdek, tizimli tasniflash yondashuvi asta-sekinlik bilan semiotik yonashuvga almashina boshlandi<sup>40</sup>. Tilshunoslar o'zlarining ilmiy ustuvorliklarini o'zgartirishga va tildagi "inson omili", tilning inson faoliyati bilan bog'liqligi, insonning tilda kuchli o'rganishga da'vat etildi.

<sup>34</sup> Aidarkhan A. Correlation between language worldview and mentality in modern linguistics. *Molodoy uchony*, 20. 2018. – P. 436–439. <https://moluch.ru/archive/206/50374/>

<sup>35</sup> Bykova O. I. & Rakitina O. N. Mythologeme as a Cultural Concept. Proc. 3rd Zhitnokovskiy Readings "A Dynamic Aspect of Linguistic Researches". Chelyabinsk. [In Russ]. 1999.

<sup>36</sup> Khayrullina R. & Berger V. Human character in the mythological world view (on the material of the Russian, Kazakh and English languages) // *Philology at MGIMO*, 2(14). 2018. – P. 61–67. <https://doi.org/10.24833/2410-2423-2018-2-14-61-67>

<sup>37</sup> Rubert I. Mythologeme as a Sign in the System of Cultural Concepts. *Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences*, 12, 2982–2988. 2015. <https://doi.org/10.17516/1997-1370-2015-8-12-2982-2988>

<sup>38</sup> Stavitskiy A. V. The Mythical Man: the role of a myth and the inevitable myth-making of people // In O. A. Gabrielyan et. all (Eds.) Collection of materials of the III International scientific interdisciplinary conference "Myth in History, Politics, and Culture, 3, – P. 45–48 [In Russ].

<sup>39</sup> Syamili C., & Rekha R. Developing an ontology for Greek mythology // *The Electronic Library*, 36, 2018 –P. 119–132. <https://doi.org/10.1108/EL-02-2017-0030>

<sup>40</sup> Никитин М.В. Предел семиотики // *Вопросы языкознания*. 1997. № 1. – С. 3–14.

Bunday takliflar ilmiy bilimlarni insonparvarlashtirishning umumiy tendentsiyasi, fanning "antroposentrik" xususiyatga ega bo'lish istagi bilan qo'llab-quvvatlandi.<sup>41</sup> Tabiiyki, antroposentrik paradigmada olib borilgan tadqiqotlar ham, ularni tanqidiy baholaydigan asarlar ham paydo bo'lishi tabiiy bir hol edi. Lingvokulturologik tadqiqotlarning kengayishi sohaning tadqiq obyekti va chegaralarining kengayishiga sabab bo'ldi. Endilikda aytish mumkinki, lingvokulturologiya tom ma'nodagi tilshunoslikning eng zarur va dolzarb tarmoqlaridan biridir. Soha rivoji, o'z navbatida, yangi tadqiq qirralarining yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Xususan, qiyosiy lingvokulturologiya<sup>42</sup>, pedagogik lingvokulturologiya<sup>43</sup> va amaliy lingvokulturologiya<sup>44</sup> shakllanishi hisobiga chegaralari kengayishni boshlaydi. Shu bilan birga, amaliy lingvokulturologiya uchun asosiylari aniq uslubiy muammolarni hal qilish, materialni izlash, tahlil qilish usullari, qo'llanish sohalaridir.

Lingvokulturologik birliklar dastlab bitta semiotik tizimga – tilga tegishli bo'lmasdan, balki madaniyatning turli bo'limlarida: miflar, marosimlar, an'analar, xurofotlar, stereotiplar, nutqiy xulq-atvor va hokozalarda mujassam bo'lishi muhim. Yangi "madaniy va lingvistik xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan" fan sifatida lingvokulturologiya va uni tashkil etuvchi ikki fan – tilshunoslik va madaniyatshunoslik jamlanmasi natijasi bo'lmaydigan shunday tizimni shakllantirish muammosi bilan duch keldi.

Lisoniy ong "nutqiy faoliyatni tashkil qilish mexanizmi va u lisoniy belgilarni, ularning o'zaro birikish va qo'llanish qoidalarini, insonning belgilarga munosabatini hamda til va uning birliklari haqidagi qarashlarni shakllantiradi. Lisoniy ong barcha boshqa turdagi onglar mavjud bo'lishi va rivoj topishiga imkon yaratadi"<sup>45</sup>.

Olamning lisoniy manzarasi insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o'z-o'ziga) bolgan munosabatini shakllantiradi. Har qanday tabiiy til dunyoni bilish

<sup>41</sup> Караулов Ю.Н. Понятие языковой личности в трудах В.В. Виноградова // *Русский язык: Языковое значение в функциональном и эстетическом аспектах: Виноградовские чтения*. – М.: Наука, 1987. – С. 91–101.

<sup>42</sup> Воробьев В.В. *Лингвокультурология (теория и методы)*. – М.: Изд-во РУДН, 1997.

<sup>43</sup> Волкова Т.Н. *Лингвопедагогическая культурология, ее предмет и место в системе научного знания // Новое в преподавании русского языка в школе и вузе*. Изв. ГУ. – Иваново, 1998. – С. 168–170.

<sup>44</sup> Doyle K.P. *Practical Linguoculturology*. – London: Academic Press, 2012. – 220 p.

<sup>45</sup> Сафаров Ш. *Когнитив тилшунослик*. – Жиззах: Санзор, 2006. – Б. 31.

usulining muayyan usulini aks ettiradi. Unda ifodalangan ma'nolar, muayyan qarashlarning yagona tizimida o'ziga xos jamoaviy falsafada mujassamlashadi va u barcha til egalari uchun majburiylik kasb etadi. Mazkur tilda so'zlashuvchilar dunyosi shakllanadi. Ya'ni olamning lisoniy manzarasi leksika, frazologiya va grammatikada muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir. Olam manzarasining konseptual va lisoniy turlarini farqlash lozim. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasidan farqli o'laroq, bilish va ijtimoiy faoliyatlar natijasini aks ettirib doimo o'zgarishda bo'ladi. Biroq olam lisoniy, manzarasining ayrim qismlari insonlarning olam haqidagi qadimdan qolgan eskicha tasavvurlarini uzoq vaqt mobaynida saqlab qoladi<sup>46</sup>.

Tilshunoslik va psixologiyaning o'zaro aloqalarida kuzatilgan qo'shimcha murakkablik esa mental kategoriyalarga murojaat qiluvchi har qanday tadqiqot psixologiya doirasida, bu erda boshqa fanlar bilan aloqa talab qilinmaydi, degan fikr bilan bog'liq. Shuning uchun kognitologlar orasida psixologiya yoki psixolingvistika bilan shug'ullangan kishilar kam. Shu bilan birga, ayrim psixologik g'oyalar masalan, geshtaltpsixologiya g'oyalari, garchi aynan tilshunoslar, eng avvalo, J. Lakoff tomonidan olib kelingan bo'lsa-da, kognitiv tilshunoslikka kuchli ta'sir ko'rsatdi<sup>47</sup>.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir<sup>48</sup>. Mazkur sohaning obyektini til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikaning namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi<sup>49</sup>. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi.

Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongning tavsiflash hamda til egalarning milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Olamning lisoniy manzarasida turli lingvokulturologik birliklarning voqelanishi muayyan til va madaniyatga xos bo'lgan individual xususiyatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Xususan, shular qatorida mifologema, stereotiplar, metaforik so'zlarni tahlil qilish jarayonida o'zbek va ingliz tillarida lingvokulturologik birliklarning ifodalanish shakllariga to'xtalamiz.

Mifologema – bu mifning “bosh qahramoni”, uning muhim personaji yoki vaziyati bo'lishi va mifdan mifga o'tishi mumkin. Mifning asosida, odatda, arxetip yotadi. Arxetip – individlar ongida paydo bo'ladigan va madaniyatda tarqaladigan turg'un obraz. Arxetip tushunchasi K. Yung tomonidan 1919-yilda muomalaga kiritilgan. K. Yung fikriga ko'ra, barcha odamlarda tush, mif, ertak va afsonalarda paydo bo'ladigan ayrim umumiy ramz – arxetiplarni g'ayriixtiyoriy shakllantiradigan tug'ma qobiliyat bo'ladi. Arxetiplarda shaxsiy tajriba oqibatida emas, balki ajdodlardan meros qilib olingan “jamoaviy g'ayriixtiyoriylik” ifodalanadi. K. Yung genetik nazariya doirasida arxetipning mifologiya bilan chambarchas bog'liqligini belgilaydi. Binobarin, mifologiya arxetiplar omboridir<sup>50</sup>.

Miflar noma'lum vaqtlarda favqulodda vaziyatlarda ishtirok etgan xudolar yoki g'ayritabiiy mavjudotlarning o'ziga xos hikoyalari sifatida ko'riladi. Mifdagi shakl mazmun bilan bir xil. Makovskiy (2014) ibtidoiy tafakkurga xos bo'lgan ikkita asosiy qolipni belgilaydi: sababiy bog'liqlikning yo'qligi va o'tmish va hozirgi munosabatlar<sup>51</sup>. Mif konseptual dunyoqarash sifatida voqelik obyektlari haqidagi individual va etnik bilimlar majmuini o'z ichiga oladi va u yoki bu dunyo haqidagi

<sup>46</sup> Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – B. 79.

<sup>47</sup> Maslova B. Kognitiv tilshunoslik – Samarqand. 2012 – B. 89.

<sup>48</sup> Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10.

<sup>49</sup> Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 9.

<sup>50</sup> Maslova B.A. Лингвокультурология: учеб. пособие. – М.: Академия, 2001.

<sup>51</sup> Makovskiy M.M. Language – Myth – Culture. // The Symbols of Life and the Life of Symbols. – Moscow: Inst. of Russ. lang. n. aft. V.V. Vinogradov, Russ. Acad. Sci. [In Russ]. – Moscow: Inst. of the Russ. lang. n. aft. V.V. Vinogradov, Russ. Acad. Sci. [In Russ].

milliy bilimlar darajasida ifodalanadi. Mifologik tafakkur yordamida dunyoni idrok etish va tizimlash orqali inson ba'zi qonuniyatlarni aniqlashga va tushunarsiz dunyoni ma'lum bir me'yor va tizimga keltirishga harakat qildi<sup>52</sup>. Mifologik tafakkur tafakkurning tarkibiy qismi bo'lib, uni amalga oshirish milliy-madaniy dunyoqarashning mifologik konseptual sohasini tashkil etuvchi mif va mifologemalarda amalga oshiriladi.

Ingliz mifologemalarini tadqiq qilishga uringan Yevgeniya Damman tadqiqotlari va kuzatishlari natijalariga ko'ra, mifologemalarning eng katta ulush (59, 63%) an'anaviy tarzda klassik mifologiya sifatida birlashtirilgan rim va yunon mifologik g'oyalarga tegishli. Bu haqiqatni yunon mifologiyasining jahonda mashhurligi bilan izohlash mumkin.

Keyingi asrlarda mumtoz tillarni o'rganishga katta e'tibor qaratilishi natijasida dunyoda rim miflari ham asosiy diqqat markaziga ko'chdi. Bu guruh asosan quyidagilardan iborat:

- a) turli xudolar (Afrodita, Apollon, Zevs, Merkurii, Juno, Yupiter va boshqalar);
- b) qahramonlar (Axilles, Gektor, Gerkules, Jeyson va boshqalar);
- v) ularning ekspluatatsiyalari (Androklar va Arslon, oltin jun, Ogey otxonalari va boshqalar);
- d) turli hosilalar (amazoniyalik, narsisizm, nymphet, shanba va boshqalar) va
- e) turli xil hosila tushunchalar alohida so'zlar shaklida (g'azab 1 juda katta g'azab 2 vahshiyona hayajonlangan (Axilles tendoni, Midas tegishi, Edip majmuasi va boshqalar)<sup>53</sup>.

Shuningdek, ingliz mifologemalari sirasida devil, goblin ham faol uchraydi. Ushbu mifologemalar orqali qo'rquv, zulmat singari holatlar ifoda etiladi. *The Devil*

<sup>52</sup> Mechkovskaya N.B. Language and Religion. – Moscow, Agency "FAIR". [In Russ]. 1998.  
Aidarkhan A. Correlation between language worldview and mentality in modern linguistics. – *Molodoy uchony*, 2018. – P. 436-439. Retrieved December 19, 2019, from <https://moluch.ru/archive/206/50374/>; Khayrullina R. & Berger V. (2018). Human character in the mythological world view (on the material of the Russian, Kazakh and English languages). *Philology at MGIMO*, 2(14), 61-67. [In Russ]. Retrieved January 15, 2020, from <https://doi.org/10.24833/2410-2423-2018-2-14-61-67>.

<sup>53</sup> Evgeniya A. Damman. Mythological language worldview as the ethnic basis of modern english word use // 10th International Conference "Word, Utterance, Text: Cognitive, Pragmatic and Cultural Aspects" DOI: 10.15405/epsbs.2020.08.38

*the most powerful evil spirit in many religions such as Christianity, Judaism, and Islam*<sup>54</sup>. Semantik o'zgarish lug'atda turli yo'llar bilan qayd etilgan. Tahlil natijasida quyidagi leksik birlik turlarini semantik o'zgarishlar bilan ajratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Mifologemada qayd etilgan semantik o'zgarish quyidagilar bo'lib, ular semantik o'zgarishlar qayd etilgan hosila tushunchalar: 1) izohlangandan keyin (ikkinchi darajali ma'no sifatida); 2) tushuntirishdan oldin (asosiy ma'no sifatida); 3) bosh ma'no doirasida; 4) tushuntirishsiz. Aytish joizki, har bir madaniyatda mavjud mifologema, bu o'sha madaniyatning tub tarixiy ildizlari, etnik xosligi, xarakter qirralarini yorituvchi vositasi o'laroq yuzaga keladi. Mifologemalar xalq fantaziyasi, tasavvuroti, his-tuyg'ularining hosilasi deyish mumkin. O'zbek mifologemalarini mavzu liniyasiga ko'ra quyidagicha guruhlarga jartish mumkin:

- a) ilohiy tushunchalarga ko'ra: iblis, shaytoni lain, dajjol, ya'juj-ma'juj;
- b) qahramonlar: Shiroq, To'maris;
- c) haftalarga: juma – xosiyatli kun, dushanba – og'ir kun;
- d) fasllar – Ayamajiz, hamal;
- e) turli tasavvur va fantaziya: uy ajinasi, jin, pari;
- f) hayvonlar bilan bog'liq: ajdarho, semurg', humo.

Mifologemalarni tamoman tasavvurot mahsuli deb bo'lmaydi. Ular zamirida muayyan bir haqiqat, xalqning orzu-istagi, qo'rquv va fobiyalari yashiringan bo'ladi. Mifologemalarning xalq ongida qayta ishlanishi va keng qo'llanilishi turli xil stereotiplarning ham yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Stereotiplar muayyan xalq dunyoqarashidan mustahkam o'rin olgan va haqiqatligiga ishoniladigan tushunchalardir. Stereotip – bu ma'lum bir guruhga nisbatan keng tarqalgan, soddalashtirilgan va zaruriy e'tiqod. Guruhlar ko'pincha jinsi, irqi va etnik kelib chiqishi, millati, yoshi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, tili va boshqalar asosida stereotiplarga ega. Stereotiplar ijtimoiy institutlar va kengroq madaniyatga chuqur singib ketgan. Ular ko'pincha bolalikning dastlabki bosqichlarida ham namoyon bo'lib, odamlarning bir-birlari bilan qanday munosabatda bo'lishiga ta'sir qiladi va

<sup>54</sup> <https://www.macmillandictionary.com/dictionary/british/devil>

shakllantiradi. Misol uchun, video o'yin dizaynerlari pushti rangdagi qizlar uchun o'yin platformasini ishlab chiqdilar, chunki ota-onalar (o'yinni sotib olganlar) qizlari buni xohlashlarini tushunishdi. Qizlarning o'zlari quyuproq metall ranglarni afzal ko'rdilar<sup>55</sup>. Gender stereotiplari ayollik va erkaklik, ayollar va erkaklarning me'yoriy tushunchalarini aks ettiradi. Shunga qaramay, jinsning barcha jihatlari singari, stereotipik ayollik yoki erkaklikni tashkil etuvchi narsa madaniyatlar va tarixiy vaqt davomida farq qiladi.

Gender stereotiplari odatda ayollik va erkaklikni ikkilik qarama-qarshilik yoki dualizm sifatida tasvirlaydi, masalan, hissiylik va ratsionallik. Stereotiplar o'z mavzusini haddan tashqari soddalashtirib, haqiqiy odamlar va ularning amaliyotlarini o'rganayotganda empirik tarzda topilgan murakkablik va xilmaxillikni e'tiborsiz qoldiradi; o'z tabiatiga ko'ra, stereotiplar tasvirlamoqchi bo'lgan guruhlarni noto'g'ri ko'rsatadi. Stereotiplar ko'pincha statistik haqiqatlar o'zgarishiga asoslangan bo'lsa ham saqlanib qoladi. Masalan, ko'pchilik ayollar to'liq ish kunida haq to'lanadigan mamlakatlarda ham uy bekasi degan stereotip saqlanib qolgan. Stereotiplar – bu bir guruh odamlarning shaxsiy atributlari yoki xususiyatlari haqidagi umumlashmalar. (Ijtimoiy stereotiplar ijtimoiy guruhlarning keng doirasi haqida mavjud bo'lib, kontekst yoki vaziyatga qarab farq qilishi mumkin. Ko'pgina stereotiplar uzoq tarixga ega va muayyan iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy sharoitlar natijasida yaratilgan.

Stereotiplash – bu kognitiv jarayon bo'lib, u xususiyatni guruh bilan bog'lashni o'z ichiga oladi, lekin u boshqa guruhlardagi odamlarga nisbatan affektiv reaksiyani o'z ichiga olishi, olib kelishi yoki oqlash uchun xizmat qilishi mumkin<sup>56</sup>. Madaniy stereotiplar muayyan millat vakillari xususida umumiy holda shakllangan qarash, fikrlarni ifodalaydi. Stereotiplarning umumiy hosil bo'lish strukturasi quyidagicha ifodalash mumkin: X mamlakatdagi odamlar Y mamlakatidagilardan yaxshiroq. X mamlakatdagilarning hammasi nodon va qo'pol. X mamlakatlaridagi

<sup>55</sup> Rommes E. Gender Sensitive Design Practices. In Trauth, E. (Ed.) // Encyclopedia of Gender and Information Technology. – Hershey: Idea Group Publishing, – P. 675–681.

<sup>56</sup> Faulkner W. Strategies of Inclusion: Gender and the Information Society. – Edinburgh: University of Edinburgh, 2004.

odamlar Y yoki Z mamlakatlaridagilarga qaraganda kamroq ma'lumotga ega. X mamlakati odamlari Y va Z mamlakatlaridagi odamlardan nafratlanadi. X mamlakatdagi odamlar zo'ravon va madaniyatsiz va boshqalar.

Xususan, o'zbek xalqi xususida shakllangan stereotiplarni quyidagicha ifodalash mumkin:

3-rasm.



Ushbu ko'rsatilgan stereotiplar eng ko'p qo'llaniladigan ijobiy ma'no bahosiga ega, buni quyidagi misol orqali ko'rib chiqamiz:

1. Yolg'iz farzand bilan o'tmaslik stereotipi.
2. O'zbek oilalarida bitta farzand bilan kifoyalanishga salbiy qaraladi. Ota-onalar "yolg'iz farzand" tarbiyasida uni erkatoy, irodasiz yoki egoist qilishdan xavfsirashadi. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarida shunday ta'rif berilgan. "Kumush – ota-onasining yolg'iz qizi". Yolg'iz yashamaslik stereotipi. O'zbek jamiyatida yolg'iz yashash (mustaqil yashash) – yordamchisiz yoki himoyachisiz tarzidek ko'riladi. "Yolg'iz daraxt shamolda sinar" (Maqol).
3. Toq (yolg'iz) yashamaslik stereotipi. O'zbeklarda toq yashash (ersiz yoki xotinsiz) salbiy hodisa sifatida ko'riladi. "Er – qoya, xotin soyadir" (Maqol).
4. Keksayganda yolg'iz qolmaslik stereotipi. O'zbeklarda keksalikni farzandlar, nabiralalar qurshovida o'tkazish eng to'g'ri hayot deb hisoblanadi. Yolg'iz qariyani

ko'rish – jamiyatda hamdardlik va achinish uyg'otadi. "Qariganda farzand – otanaga qanot" (Maqol).

Biroq salbiy ma'noga ega bo'lgan madaniy stereotiplar ham borki, ular to'g'ridan to'g'ri ifodalanmaydi:

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida bo'ysunuvchan, moslashuvchanga shunday ta'rif berilgan: *Qo'lga olar odam peshonasiga shartta to'pponcha tiraydi – qo'lga oladi-qo'yadi-da! Abdurahimov bo'lsa – nuqul qo'lini ko'ksiga qo'yadi, nuqul tevarak-boshga salom beradi! Mayli, o'zbekchilik... baranchilik bo'lsa – baranchilik-da, dedim. Indamay ergashib bora berdim. Ichkari kirsam – G'oipov to'rda nahor nonushtasi yeb-ichib o'tiribdi. Dasturxonini nonushta dasturxoniyam deb bo'lmaydi. Mundayroq to'y dasturxoni desa bo'ladi. G'oipov bizniyam choyga chaqirdi. Mayli, baranchilik bo'lsa – baranchilik-da, dedim-da, bir piyola choy ichdim.*

Xushomadgo'yga esa shunday ta'rif berilgan: *Laganbardor el! Evaziga Sho'ro hukumati ko'zini bo'yaydi! Sen baranlar Baranistonni o'zida qanoatlanib qolmaysanlar. Ko'chaga chiqsang bilasan – do'konlarda minglab olado'ppi baranlar izg'ib yuribdi. Olado'ppi baranlar do'konda ko'ziga nima ko'rinsa bo'ldi – ola solib xaltasiga tiqadida, Baranistonga orqalab ketadi.*

Inglizlarga xos bo'lgan quyidagi stereotiplar eng faol:

4-rasm

#### Inglizlarga xos "yolg'izlik" konsepti stereotiplari



Ushbu inglizlarga xos stereotiplarni quyidagi misollar bilan izohlaymiz:

1. Yolg'iz yashashdan cho'chimaslik stereotipi.

Inglizlar yolg'iz yashashni zaiflik yoki ayanchli holat deb qabul qilmaydi. Aksincha, bu mustaqillik, erkinlik va o'z-o'zini rivojlantirish belgisi sifatida qadrlanadi. "Solitude is the nurse of wisdom". (Yolg'izlik – donishmandlikning hamshirasidir) (Maqol).

## 2. Jufti istasa yolg'iz qolishiga ruxsat berish stereotipi

Ingliz oilaviy madaniyatida juftlar bir-birining shaxsiy hududi va yolg'izlik ehtiyojini hurmat qilishadi.

"If you love someone, set them free». (Agar kimnidir sevsang, uni ozod qo'y).

## 3. Ijod qilish uchun yolg'izlikni yaxshi fursat sifatida qabul qilish stereotipi

Inglizlarda yolg'iz qolish ko'pincha ijodkorlik uchun eng zarur muhit deb qaraladi. Buyuk yozuvchilar, shoirlar va rassomlar yolg'izlikda o'z asarlarini yaratganlar.

Solitude is the school of genius». (Yolg'izlik – daholarning maktabi) (Maqol).

## 4. Zarur paytda chekinish va yolg'izlikka intilish stereotipi

Inglizlar ko'p hollarda hayotdagi muammolar yoki haddan tashqari ijtimoiy bosimdan so'ng yolg'izlikni qabul qilishni va unga chekinishni tabiiy ehtiyoj deb bilishadi. Ular o'zlarini jamiyatdan vaqtincha ajratib, ruhiy dam olishadi.

"Every man is an island". (Har bir odam – bir oroldir) (Maqol).

O'zbek va ingliz madaniyatida "yolg'izlik" stereotiplarining quyidagicha lingvokulturologik tahlili quyidagicha:

### 1. Yolg'iz yashash stereotipi

O'zbek madaniyatida yolg'iz yashash holati ko'pincha ijtimoiy zaiflik yoki himoyasizlik sifatida qabul qilinadi. "Yolg'iz daraxt shamolda sinar" maqolida yolg'izlik bevosita mojarolarga chidamsizlik, ya'ni hayotiy tahdidlar oldida ojizlik bilan ifodalanadi. Ushbu "yolg'izlik" geshtalti "xavf modeli" asosida shakllangan.

Ingliz madaniyatida esa yolg'iz yashash mustaqillikning bir ko'rinishi sanaladi. "Solitude is the nurse of wisdom" degan maqol shaxsiy yolg'izlikni donolik va ruhiy o'sishga sabab deb talqin qiladi. Bu esa yolg'izlik – o'zini anglash va rivojlanish geshtaltini aks ettiradi.

### 2. Oila doirasida yolg'izlikni qabul qilish.

O'zbek oilaviy mentalitetida turmush o'roqlar bir-birining doimiy hamrohi bo'lishi kerak, juftlar orasidagi masofa ko'pincha salbiy qaraladi. Shu sababli "toq yashash", ya'ni turmush qurmagan yoki beva holat jamiyatda achinish yoki yolg'izlik belgisi sifatida ko'riladi. Maqollar orqali bu tasdiqlanadi: "Er – qoya, xotin – soyadir".

Aksincha, ingliz oilalarida shaxsiy hududga hurmat ko'proq qadrlanadi. "If you love someone, set them free" degan ibora nafaqat ozodlik, balki biror shaxsning yolg'iz qolish ehtiyojini tan olish madaniyatini ifodalaydi. Bu – madaniy tolerantlik va psixologik mustaqillik modeli.

### 3. Yolg'izlik va ijod.

O'zbek kontekstida ijodiy faoliyat ko'proq ijtimoiylik orqali (majlislar, she'rxonlik, guruhdagi ruh) rag'batlantiriladi. Yolg'izlik ko'proq ayanchli, hissiy iztirob holati sifatida talqin qilinadi (masalan, adabiyotda yolg'iz qahramonlar ko'pincha fojiiy obrazlar sifatida aks etadi).

Ingliz madaniyatida esa yolg'izlik – ko'plab mashhur ijodkorlar tomonidan kreativ energiyaning manbasi sifatida e'tirof etilgan. "Solitude is the school of genius" degan maqol bu stereotipga asos yaratadi. Bu yerda yolg'izlik – potensialni ochuvchi ruhiy makon sifatida namoyon bo'ladi.

### 4. Yolg'izlikdan chekinish ehtiyoji.

O'zbeklarda, ayniqsa, keksalik davrida yolg'iz qolmaslik kuchli stereotipga aylanadi. "Qariganda farzand – ota-onaga qanot" degan maqol keksalikdagi yolg'izlikni istalmagan holat sifatida ko'rsatadi. Madaniy normalarga ko'ra, qarilik – bu ko'makka muhtojlik davri, yolg'izlik esa e'tiborsizlik belgisi sifatida baholanadi.

Inglizlarda esa "Every man is an island" degan maqol har bir insonning shaxsiy dunyosi va chegarasi mavjudligini bildiradi. Ruhiy tiklanish uchun jamiyatdan chekinish tabiiy ehtiyoj sifatida tan olinadi. Bu – introversiyaga ochiq ijtimoiy model.

Lingvokulturologik tahlil shuni ko'rsatadiki, yolg'izlik tushunchasi har ikki jamiyatda mavjud bo'lsa-da, unga bo'lgan madaniy yondashuv tubdan farq qiladi. O'zbek stereotiplari kollektivlik, oila va jamiyatga bog'liqlikni markazga qo'ysa, ingliz stereotiplari esa individuallik, erkinlik va ruhiy yuksalish bilan bog'liq. Bu farqlar til birliklarida – maqollarda, iboralarda, adabiy manbalarda yorqin ifodasini topgan.

Shuningdek, stereotiplarning irqiy, ijtimoiy, gender, diniy singari turlari ham mavjud bo'lib, mohiyatan din, irq va gender xosligiga ko'ra jamoatchilik ongida shakllangan yagona qarashlar, motivlarni ifodalaydi. Stereotiplarning o'ziga xos jihataridan yana biri shundaki, u to'g'ridan to'g'ri verbal nutqda ishlatilmaydi. Masalan, muayyan xalq vakiliga nisbatan shakllangan stereotip ochiq ishlatilmaydi. Biroq bu stereotiplar inson ongida shakllanib ulgurgan va inson xatti-harakatlari orqali ifodalanadi. Stereotiplash – bu boshqa odamlarni qat'iy shartlar bilan ifodalash va hukm qilish usuli<sup>57</sup>. Bular ular tayinlangan toifaning taxminiy xususiyati atrofida aylanadi. Ular o'zlarining shaxsiy xususiyatlari va fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar sifatida qarashdan ko'ra, bundan kelib chiqadigan stereotipga tushiriladi. Ular o'ziga xos va o'ziga mos deb hisoblanish va muomala qilish o'miga, ular oddiygina toifalarni belgilash va bir hillashtirilgan va tabiiylashtirilgan atribut orqali ifodalanadi. Stereotipning kuchi, odatda, qaytarib bo'lmaydigan deb hisoblanganda kuchliroq bo'ladi<sup>58</sup>. Olamning lisoniy manzarasini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi lisoniy geshtaltlar nazariyasini bilimlar strukturasi sifatida qaraigan freymlar nazariyasi bilan aloqador qilishga urinayotgan kognitiv tilshunoslik bilan ham bog'liqdir<sup>59</sup>. Lingvomadaniy muhitda turli xil tushunchalar mavjud. Har xil turdagi tushunchalarni ifodalashning bir qancha vositalari mavjud: leksik, frazeologik, paremiologik, sinonimik va boshqalar. Kognitiv lingvistikaning jadal rivojlanishi nazariya darajasida tushuncha tipologiyasini o'rganish bilan bir

<sup>57</sup> Adya M., and Kaiser K.M. Early determinants of women in the IT workforce: a model of girls' career choices. *Inf. Technol. People* 18, 2005. – P. 230–259. doi: 10.1108/09593840510615860

<sup>58</sup> Bhanot R., and Jovanovic J. Do parents' academic gender stereotypes influence whether they intrude on their children's homework? *Sex Roles* 52, 2005. – P. 597–607. doi: 10.1007/s11199-005-3728

<sup>59</sup> Geshtalt tushunchasi // O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, Samarqand Davlat Chet tillar Instituti, Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari fani. Mustaqil ish. – OEFEN.UZ, 08.08.2023. – Elektron resurs. URL: <https://oefen.uz/documents/referatlar/umumiy/geshtalt-tushunchasi>

qatorida kognitiv hodisalarning shakllanishiga hissa qo'shadigan og'zaki turlarni aniqlashga qaratilgan. Tushunchalar tipologiyasi o'z imkoniyatlari doirasida fikr birliklarini ajratib ko'rsatadi. A.P. Babushkin funksional va strukturaviy jihatdan bilim jarayoni va turlari mavzusi bo'yicha tadqiqotlarida sezilarli yutuqlarga erishdi. U tushunchalar turlarining chegaralarini aniqlay oldi: aqliy rasm, sxemalar, gipernymmlar, ramkalar, g'oyalar, stsenariylar, kaleydoskopiklardir<sup>60</sup>.

N.N. Boldirev bu turlarni birmuncha kengaytirdi: xususan, tasvirlar, sxemalar, tushunchalar, prototiplar, takliflar, ramkalar, stsenariylar yoki skriptlar, geshtaltlar<sup>61</sup>. S.K. Borkachev burch, baxt, muhabbat, vijdon va oddiy tushunchalarni darajasiga ko'ra ajratib ko'rsatadi<sup>62</sup>. G.G. Slisshkin birinchi va ikkinchi turdagi tushunchalarni, shuningdek, metakonseptsiyalarni ajratadi<sup>63</sup>. Keyinchalik, V.I. Karasik tushunchalarning parametrik va parametrik bo'lmagan turlarini ajratib ko'rsatdi<sup>64</sup>. M.V. Pimenova tushunchalarning quyidagi turlarini aniqladi: tasvirlar (Rossiya, ona va boshqalar), g'oyalar (kapitalizm), ramzlar (tulki, bo'ri) va madaniyat tushunchasi (shu jumladan madaniyatning universal kategoriyalari – (vaqt, makon), geshtaltning konseptual tahlili bilan tilshunoslar va psixologlar shug'ullangan. Geshtalt professional tasavvurning bir shaklidir. Kognitiv tuzilishda geshtalt tipining roli juda katta. Avvalo, bu psixologik birlik. Terminning ma'nosi – tasvir, shakl. Ma'lumki, tilning funksional tuzilishi (nutq aktidagi struktur birliklarning vazifasi, ularning roli va boshqalar) tartibga solinadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, geshtalt konseptual tuzilma, yaxlit obrazdir. Geshtalt yaxlit tasvir sifatida taqdim etiladi. Unda to'rtta asosiy xususiyat mavjud: 1) chizmaning aniqligi (geshtaltga bog'liqlik omili ustuvor); 2) yuqori yig'indilik (asosiy shakl asosiy ma'nodan iborat, natija alohida qism sifatida keladi); 3) metaforik; 4) tarkibiy yondashuv. Geshtaltning shakllanishida quyidagi tamoyillar muhim omil

<sup>60</sup> Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во Воронежского государственного университета, 1996. – С. 104.

<sup>61</sup> Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Курс лекций по английской филологии. – Тамбов: ТГУ, 2001. – С. 124.

<sup>62</sup> Боркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – М.: 2004. – С. 53.

<sup>63</sup> Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвистические концепты прецедентных текстов в слушании или дискурсе. – М.: Академия, 2000. – С. 128.

<sup>64</sup> Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 478.

hisoblanadi: o'xshashlik, bir xillik, yaqinlik, kontur, simmetriya, inversiya, barqarorlik, uzluksizlik.

Geshtalt va uning konsepsiyadagi semantik tuzilishi quyidagicha ko'rsatiladi: I. Xotira turi: yodgorlik, haykaltaroshlik, yodgorlik. II. Shon-sharaf va shon-shuhrat: Pushkin haykali, Nasimiy haykali, qahramon haykali. III. Tarix: qadimgi zamonlar, ajdodlarim, uzoq o'tmish, qadimiy obidalar, eski odatlar. IV. San'at: madaniyat, me'morchilik, haykaltaroshlik, go'zallik, san'at. V. Material: tosh, gil, marmar, bronza, granit. VI. Hajmi: ulkan haykal, ulug'vor haykal, ulug'vor Shekspir haykali, katta haykal. VII. Foyda: foydasizlik, samarasizlik; noto'g'ri boshqaruv; uy xo'jaligini boshqara olmaslik. Bularning barchasi yodgorlik sohasining semantik tuzilishini tashkil qiladi. Geshtaltlar orqali insonlar ongida tasavvurlar, fikrlar, tushunchalar va g'oyalar paydo bo'ladi.

Geshtaltlarning lingvokulturologik birlik sifatida e'tirof etilishining asosiy sabablaridan biri ularning milliy o'ziga xoslik natijasi o'laroq axborot tashish funksiyasi sanaladi. Xususan, turli logotiplarni ko'rganda insonlar ongida turli assotsiatsiyalar paydo bo'ladi. Ularni taxminan quyidagicha ifodalash mumkin: Geshtalt inson ongida muayyan axborot tashuvchisi obraz sifatida saqlanib turadi.

Geshtalt ikki darajaga ega – bu 1) yadro geshtalt tuzilishi; 2) tushunchaning geshtalt funksiyasi. Shunday qilib, geshtalt tushunchasi kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchasidir. U tafakkur kategoriyasi bo'lib, tilshunoslikda o'z ifodasini topgan. Tilshunoslikda bu tushunchaning turlicha talqinlari mavjud. Tushuncha mentalitet sohasiga mansub xotira birligi bo'lib, u tilni idrok etishning konseptual tizimi bo'lib, ideal, mavhum xarakterga ega, konkret-assotsiativ va emotsional-baholash xususiyatlariga ega. Eng muhim tushunchalar tilda o'z ifodasini topadi, bu yerda ular murakkab va yaxlit funktsional fikrning tuzilishidir. Uning asosiy xarakterli xususiyatlari – tasvirning yaxlitligi, uning to'liqligi, tegishli his-tuyg'ular va oqilona elementlarning mavjudligi; dinamik va statistik jihatlar. Geshtalt tushunchasining tuzilishida ikki daraja – til va nutq mavjud. Lingvistik darajada geshtalt tushunchasi tarkibida leksik, morfologik va sintaktik ma'lumotlar birlashtirilib, uning natijasini ifodalaydi. Nutq darajasida Geshtalt konsepsiyasi

tugallanish, semantik, pragmatik va kommunikativ bilimlarning yig'indisidir. Geshtalt konsepsiyasi turi o'rganilayotgan tillarning universal qobiliyatini amalga oshiradi, bu g'oyalar va fikrlarni shakllantirish jarayonini faollashtirish qobiliyatida ifodalanadi.

Olamning lisoniy manzarasida lingvokulturologik birliklar frazema, paremiya, mifologema, stereotip, geshtaltlar ko'rinishida ifodalanadi va har bir madaniyatga xos bo'lgan individualliklarni namoyon etadi.

### 1.3. "Yolg'izlik" va "hijron" konsepti etimologiyasi va semantik tabiati

"Yolg'izlik" – fanlararo tadqiqotlar doirasida faol o'rganilgan eng ziddiyatli tushunchalar qatoriga kiradi. Masalan, E.A. Mazurenko yolg'izlikni insonning o'ziga mosligini va o'ziga xosligini anglashi natijasida yuzaga keladigan, uning hayoti uchun to'liq va ongli javobgarlikni o'z zimmasiga oladigan, shaxsning ichki erkinligi darajasini belgilaydigan, odamni o'z "men"i dan tashqariga olib chiqadigan va dunyoga murojaat qiladigan, uning manfaatlari doirasini kengaytiradigan va o'zini aniqlashga imkon beradigan ekzistensial holat deb ataydi<sup>65</sup>. S.V. Bakaldin yolg'izlik deganda odamlar bilan yaqin, ijobiy hissiy aloqalar yo'qligi va (yoki) ularni yo'qotish qo'rquvi bilan bog'liq salbiy tuyg'uni tushunadi<sup>66</sup>. O.B. Dolginova yolg'izlikni shaxsning shaxsiy ehtiyojlaridan mahrum bo'lish natijasida boshdan kechirgan ongli, og'riqli holat sifatida belgilaydi<sup>67</sup>. K. Rojers yolg'izlikni shaxsni o'zining haqiqiy ichki his-tuyg'ularidan begonalashtirish deb bildi, chunki u boshqalardan olgan e'tirof va muhabbat istagi tufayli, faqat o'zining "men"idan uzoqlashdi. S.L. Verbitskaya yolg'iz odamni qadriyatlar va ijtimoiy ehtiyojlarning nisbatan o'zgargan tuzilmalariga ega bo'lgan hissiy jihatdan begonalashgan aloqa subyekti deb ataydi<sup>68</sup>. N.S. Pozdeva pozitsiyasidan yolg'izlik tuyg'u va hissiyot

<sup>65</sup> Mazurenko E.A. Yolg'izlik: Insonning ekzistensial holati [Yolg'izlik: The Existential Condition of the Individual]. – Noshir, 2006. – P. 19.

<sup>66</sup> Bakaldin S.V. Yolg'izlik: Odamlar bilan yaqin, ijobiy hissiy aloqalar yo'qligi va (yoki) ularni yo'qotish qo'rquvi bilan bog'liq salbiy tuyg'ular // Loneliness: Negative Feelings Associated with the Absence of Close, Positive Emotional Connections with Others and/or the Fear of Losing Them. – Noshir, 2018.

<sup>67</sup> Dolginova O.B. Yolg'izlik: Shaxsiy ehtiyojlaridan mahrum bo'lish natijasida boshdan kechirgan ongli, og'riqli holat // Loneliness: A Conscious, Painful Condition Experienced as a Result of Deprivation of Personal Needs. – Noshir, – B. 6.

<sup>68</sup> Rojers K. On Becoming a Person. Houghton Mifflin. 1961.

sifatida qaralganda salbiy xususiyatlarga ega bo'ladi va agar u holat sifatida tahlil qilinsa, yolg'izlik insonning faoliyatini kuchaytirishi, yangi xulq – atvor modelini izlashga turtki bo'lishi va o'z joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin. Yolg'izlik tushunchasining ikki tomonlama tabiati O.V. Kashtanovning ishida tasvirlangan, u yunon va lotin tillarida yolg'izlikni hayotning asl yaxlitligi, asosi va manbaysifatida birlamchi tushunishni ta'kidlagan, chunki koinot yagona printsipga asoslangan. Vaqt o'tishi bilan yunon tilida yolg'izlik lotin tilida sutdan ajratish, izolyatsiya deb tushunila boshlandi. XI–XIX asrlarning qadimgi rus lug'atlarida yolg'izlik oilasi bo'lmagan, yopiq, jamiyatdan uzoq va unga begona odamga xos bo'lgan orttirilgan holat sifatida aniqlandi. Shunga o'xshash xulosalar N.S.Pozdeevaga tegishli, muallif qadimgi rus tilida "yolg'izlik" va "hijron" tushunchalarining sinonimligi, ularning ma'nosi umumiy, o'xshash, bir xil. "yolg'izlik", "ayriliq", "izolyatsiya" va boshqa "odamlar bilan aloqalarning yo'qligi" bilan bog'liq degan xulosaga keldi.

Til va madaniyat bir-birini belgilovchi hodisalar sifatida "yolg'izlik" va "hijron" kabi tushunchalarning turli xalqlarda qanday ifodalanishini ham aniqlab beradi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Yolg'izlik"ka shunday ta'rif beriladi.

**yolg'izlik** ot

**1. O'zi bilan o'zi bo'lishlik, yakka; tanholik.**

*Ikromjon necha kundan beri yolg'izlikni qo'msardi. S. Ahmad, Ufq.*

**2. Yolg'iz yashashlik.**

*– Yolg'izlik qursin, opajon, – Qumri dasturxonni yig'ishtirayotib so'zladi. H. G'ulom, Mash'al<sup>69</sup>.*

"Yolg'izlik" hissi tildagi "yolg'iz" tasviriga aylanadi va insonning bir o'zi, tanho yashashi yoki jamiyatda yakka holda mavjud bo'lish holatini aks ettiradi. Bu holat tilimizda "yolg'izlik"ning natijasi sifatida "yolg'iz" holatga o'tib, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy aloqalardan uzilgan, yakka va tanho mavjudlik shaklida

<sup>69</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. URL: <https://izoh.uz/> (murojaat sanasi:12.08.2022)

tasvirlanishiga olib keladi. O'zbek tilining izohli lug'atida "Yolg'iz" so'ziga shunday ta'rif beriladi.

**Sf. yolg'iz**

**1. Birorta ham sherigi yo'q, bir o'zi; yakka, tanho.**

*Yolg'iz daraxt. Yolg'iz o'zi keldi. Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong'i chiqmas. Maqol.*

*Shubhali yolg'iz yo'lovchi ketganicha ko'rinmadi-qo'ydi. H. G'ulom, Mash'al.*

**2. Aka-uka va opa-singillari yo'q; ota-onaning yagona farzandi.**

*Yolg'iz o'g'il.*

*Har bir ona singari To'qson buvi ham o'z yolg'izining baxtli bo'lishini istardi.*

N. Safarov, Olovli izlar.

*[Yormat] El orasida meni sharmanda qilma, yolg'iz qizimsan, ayab turibman.*

Oybek, Tanlangan asarlar.

*Ayamning yolg'iz o'g'li urushga ketib, kelini uch bolasi bilan qolibdi.*

S. Siyoyev, Yolg'izlik.

**3. Kimsasiz, hech kim yo'q.**

*Uy yolg'iz bo'lgani uchun xolannikida birpasgina o'tirib qaytdim. R. Fayziy,*

Cho'lga bahor keldi.

**4. yukl. vzf. Faqat, birgina.**

*[Adolat] Yolg'iz o'z taqdirini emas, o'ziga o'xshagan yuz-lab xotin-qizlarning taqdirini o'ylaydi. S. Zunnunova, Gulxan.*

*Ahmad Husayn bir necha kun uydan qo'zg'almadi. Uning ermagi yolg'iz kitoblar bo'ldi. Oybek, Nur qidirib.*

*– Juftlik yolg'iz kishilar orasidagina emas, yer yuzidagi har bir maxluqda ham bor – dedi Anvar. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon<sup>70</sup>.*

O'zbek tilining izohli lug'atida "Hijron" so'ziga shunday ta'rif beriladi.

**HIJRON** ot

<sup>70</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. URL: <https://izoh.uz/> (murojaat sanasi:12.08.2022)

*poet. Ayriliq, judolik, firoq.*

*Bulbul ketdi, gul qoldi, O'rtaga tushdi hijron. Yigit ham sog'inadi. Yor bag'ri loladek qon. H. Olimjon.*

*Baxtiyor sevgini kuylardi sozim, O'lim xanjariga tegdi-yu sindi, Hijron faryodiday sovuq ovozim, Nahot lirikaning yolqini tindi? Zulfiya.*

*Bir yigit hijroni ba'zan otaning Bag'rini, do'stlarim, dog'-dog' o'rtar. G'. G'ulom<sup>71</sup>.*

- Iztirob va g'am - hijron ko'pincha azob, ma'yuslik va yurak og'rig'i bilan hamroh bo'ladi.

- Sog'inch va hasrat - uzoq muddat ko'rishmagan do'st, sevgi yoki vatan uchun ich-ichidan keladigan sog'inish hissi.

Hijron o'z ifodasida "visol" (uchrashuv) konsepti bilan qarama-qarshi ma'noda turadi.

Hijron so'zining sinonimlari ajralish, sog'inch, hasrat, yurak og'rig'i, antonimlari esa visol, uchrashuv, qovushish kabi so'zlar bilan ifodalanadi.

O'zbek adabiyotidan quyidagi misollarda tasvirlanadi:

Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida hijronni Majnun ruhiy iztiroblari shunday tasvirlanadi:

"Hijronining xuruji Majnunni junun ila giriftor qildi".

<sup>75</sup>Hans Wehr. A Dictionary of Modern Written Arabic. 1976  
62

Erkin Vohidovning "Ayrilish" she'rida hijronni sevgi va quvonchdan keyingi dardlarini shunday tasvirlaydi:

"Bu quvonchlar so'ngida hijron  
Borligini, netay, bilmadim".

Ingliz adabiyotidan William Shakespeare "Sonnet 97" da hijronni qish fasliga qiyoslaydi:

"How like a winter hath my absence been  
From thee, the pleasure of the fleeting year!" (Mendan uzoqliging qishdek sovuq edi...)

Emily Dickinson hijronning azobini juda nozik tarzda ifodalaydi:

"Parting is all we know of heaven, and all we need of hell". (Ajralish - jannatdan bilganimiz, do'axdan istaganimizdir).

"Hijron" kognitiv metafora nuqtayi nazaridan qaralganda, masofa va ajralish orqali hissiy kechinmalarni obrazli tarzda ifodalaydi.

Lakoff va Johnson nazariyasiga ko'ra (1980), inson o'z his-tuyg'ularini ko'pincha jismoniy tajribalar asosida tasvirlaydi. Shuning uchun hijron masofa, sovuq, bo'shliq kabi metaforik ramzlar orqali ifoda etiladi.

1. Hijron - bu masofa (distance).

"He grew distant" (U uzoqlashdi). Ajralish ruhiy yaqinlik yo'qolishini fazoviy uzoqlik orqali tasvirlaydi. Sevikli odam fizik jihatdan yaqin bo'lishi mumkin, ammo ruhiy masofa sezilarli bo'ladi. Ingliz tilidagi "growing distant" iborasi, o'zbek tilidagi "orasiga masofa tushdi, ko'ngillar uzoqlashdi" kabi iboralar bilan mazmunan mos keladi. Ikkalasida ham masofa hissiy uzilish timsoli.

2. Hijron bu sovuqlik (coldness).

"I felt a chill in his voice" (Uning ovozida sovuqlik bor edi). Hijron hissiy sovuqlikni keltiradi. Aloqadagi iliqlik yo'qolganda, munosabatlar befarq tusga kiradi. Inglizcha "cold tone, cold response" iboralari, o'zbekchada "sovuq, ko'ngli sovugan" degan iboralarga to'g'ri keladi. Harorat orqali hissiy holat ifodalanadi, bu kognitiv metafora nazariyasiga aniq misoldir.

3. Hijron - bu bo'shliq (emptiness/void).

“There’s a hole in my heart” (Yuragimda bo’shliq bor). Bu metafora yo’qotishning ichki tomoni – ma’nosizlik va ruhiy tanholikni anglatadi. “Hole in the heart” – ingliz tilida o’zini yetimdek his qilishni bildiradi. O’zbek tilida “Ichim huvillab qoldi, ko’nglim bo’sh” deyishadi. Ikkala til bu bo’shliqni hissiy yetishmovchilik ramzi sifatida ishlatadi.

4. Hijron – bu og’ir yuk (weight).

“He carried the weight of separation” (U ayriliq yukini yelkasida ko’tardi). Bu yerda hijron ruhiy yuk sifatida ifodalanadi, inson o’zini fizik jihatdan ham og’ir sezadi. “The burden of loss, emotional baggage” ingliz tilida keng qo’llaniladi. O’zbek tilida esa “yuragimda yuk bor, ko’nglimda toshdek og’irlik” kabi iboralar ishlatiladi. Har ikki madaniyatda hijron – ruhiy yukning jismoniy shakliga aylangan obraz.

5. Hijron – bu yara (wound).

“She left a scar on my heart” (U yuragimda iz qoldirdi). Hijron – vaqt o’tishi bilan unutilishi qiyin bo’lgan ruhiy jarohatdir. Ingliz tilida “scar” – tuzalgan, ammo izi qolgan og’riq belgisi. O’zbek tilida “esa bitmas yara, yurakdagi chandiq” kabi iboralar bilan bu og’riq abadiy qoladi. Har ikkala madaniyat jarohatni ruhiy kechinma sifatida qabul qiladi.

6. Hijron – bu sukunat (silence)

“The silence was deafening” (Sukunat quloqlarni yorar darajada edi). Sukunat bu yerda – muhabbatli so’zlarning yo’qligi, suhbatning uzilishi, ichki tinchlikning yo’qolishi timsoli. Ingliz tilida bu “loud silence” kabi oksimoron bilan beriladi. O’zbek tilida og’ir sukunat, sukutli g’am kabi obrazlar mavjud. Har ikkala madaniyatda sukunat – yo’qotilgan aloqaning timsoli.

7. Hijron – bu ketish/yo’qolish (disappearance/departure)

“He drifted away like a boat” (U go’yo suv ustida suzayotgan qayiqdek yo’qolib ketdi). Bu metafora sekin, lekin barqaror ketishni bildiradi. Munosabatlar go’yo hech qanday portlashsiz, sokin tarzda tugaydi. Ingliz tilida “drift away” – oqim bilan ketish, bevosita sabab ko’rsatilmadan yo’qolishni bildiradi. O’zbek

tilida esa “ko’zdan yo’qolish, so’qmoqda soya kabi tasvirlar” bilan ifodalanadi. Ikkala tilda ham hijron – asta-sekin vujudan chiqib ketgan obraz sifatida ishlatiladi.

Ingliz tilida bu holat “separation”, “parting”, “absence” kabi so’zlar bilan beriladi. Biroq o’zbek tilidagi hijron so’zida g’am va sog’inch ohangi ko’proq va chuqurroq ifodalangan.

Hijron – nafaqat bir so’z, balki inson ruhiy tajribasining teran bir ifodasidir. U etimologik jihatdan arab tilidan kelib chiqqan bo’lsa-da, o’zbek adabiyotida o’ziga xos poetik boylik kasb etgan. Semantik jihatdan hijron sog’inch, ajralish, g’am va visolga intilishning badiiy obrazidir. Lingvistik nuqtayi nazardan hijron hissiy tajribalarni metaforik va poetik shaklda ifodalaydi.

### Bob bo’yicha xulosa

1. Lingvokulturologiya til va madaniyatning kesishmasidagi muammo va masalalarga yechim topuvchi, turli madaniyatlarda lingvistik vositalarning o’zaro bog’liqligi, tafovutlarini o’rganuvchi, tahlil etuvchi soha. Lingvokulturologiyani asosiy tushunchalaridan biri konsept mental mohiyat kasb etuvchi, turli tarkibdagi bilimlarning aql-idrok, ong orqali o’zlashtirilishi, jamlanishi va yaxlit obrazda tasvirlanishini anglatadi. Konsept maydoniga kiruvchi konseptosfera elementlari konseptning turli nutqiy sharoitlarda hosil bo’lishi va voqelanishini namoyon etadi.

2. Jahon tilshunosligida lingvokulturologik birliklar faqat tilshunoslar tomonidagina emas, falsafa, mantiq, psixologiya, kognitologiya singari soha mutaxassislari tomonidan tadqiq etilgan. Bu esa lingvokulturologik birliklar nafaqat tilshunoslik va madaniyatshunoslik, balki boshqa sohalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etishini ko’rsatadi.

3. Olamning lisoniy manzarasida lingvokulturologik birliklar muayyan millatga xos bo’lgan lingvistik xususiyatlarni mifologema, frazema, paremiya, nutqiy etiket, lakuna, geshtaltlar misolida yoritib berishga xizmat qiladi. Muayyan millat ongida shakllangan stereotip yoki geshtaltlar ikkinchi madaniyat vakillari ongida uning qarama-qarshisi bo’lib shakllangan.

4. "Yolg'izlik" va "hijron" konseptlari inson ruhiyatidagi ajralish va ma'naviy iztirob holatlarini ifodalovchi muhim tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Yolg'izlik ko'proq insonning tashqi dunyo bilan aloqalarining susayishi, ijtimoiy munosabatlardan chekinishi hamda o'z-o'ziga qaratilgan ruhiy tajribalarini anglatadi. "Hijron" esa etimologik jihatdan arab tilidan kirib kelib, "ajralmoq", "uzilmoq" ma'nolarini bildiradi. Shu bilan birga, u faqat jismoniy ajralish jarayoni bilan cheklanmay, balki inson qalbidagi sog'inch, kechirim istagi va visolga intilish kabi murakkab psixologik va ma'naviy holatlarni ham o'zida mujassam etadi.

5. Yolg'izlik va hijronning leksik-semantik tarkibi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ajralish, sog'inch, iztirob, kechirim kabi ma'nolar orqali ularning konseptual qamrovi yanada boyiydi. Yolg'izlik ko'proq shaxsning individual ruhiy holatini ifodalagan holda, hijron konsepti bu holatni kengroq falsafiy va ma'naviy mazmunda anglatadi. Shu tariqa, hijron tushunchasi ajralishning tashqi va ichki jihatlarni, sog'inch va iztirobni, shuningdek, visol umidini ham qamrab olib, inson ruhiyatidagi eng chuqur tajribalarni ifodalovchi konseptlardan biri sifatida shakllanadi.

## II BOB. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "YOLG'IZLIK" VA "HIJRON" KONSEPTLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

### 2.1. O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari

Kognitiv tilshunoslik psixolingvistikaning zamirida shakllangan shaxs ong va ongosti faoliyatining bevosita nutqqa ta'sirini va voqelanishini o'rganuvchi soha deyish mumkin. Odamlar ongida konseptosfera – bilim kvantlaridan iborat doimiy ravishda o'zgarib turadigan va yangilanadigan konseptlar mavjudligini asosladi. Ma'lum bo'ladiki, til belgilari odamlar tomonidan muhim malumotlarni almashish uchun yaratiladi, ya'ni eng keng tarqalgan va kommunikativ jihatdan talab qilinadigan konseptlar uning lingvistik vositalar bilan ko'rsatilgan qismiga qaraganda ancha katta va kengroq konseptual ma'nolarni ifodalaydi. Psixolingvistikaning bunday nazariy yutuqlari kognitiv tilshunoslik metodologiyasini yaratishga asos bo'ldi<sup>76</sup>.

Kognitiv lingvistikada konsept tabiatini o'rganish birlamchi ahamiyatli vazifa sanalsa-da, zamonaviy tilshunoslikda ushbu atamaning muayyan bir fikrga asoslangan yetakchi ta'rifi mavjud emas. Lisoniy konseptologiya konseptni milliy kognitiv ongning lisoniy vositalar yordamida modellashirilgan birliklari va milliy konseptosfera tavsiflari sifatida qo'llaydi.

"Konsept"ning ma'nosi kognitiv fan, metafizika va aql falsafasida o'rganiladi. "Konsept" atamasi Aristotelning "Konseptlarning klassik nazariyasi" atamalarga ta'rifidan kelib chiqqan<sup>77</sup>.

Insonning idrok etuvchi faoliyati turli obyektlarning o'xshash va farqli jihatlari asosida guruhlash konseptlarini anglash asosida amalga oshadi. Demak, konseptlarning shakllanishi dunyoni idrok etish, olam haqidagi tasavvurlar bilan bog'liqdir. Til tashuvchilari muayyan milliy-madaniy doiradagi konseptual tizim egasi hisoblanadilar. Konseptlar tabiatan mental (ma'naviy-ruhiy) mohiyatdir. Har

<sup>76</sup> Попова Э.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – Москва, АСТ: «Восток-Запад», 2007. – С. 23.  
<sup>77</sup> Aristotle. Nicomachean Ethics. – USA: Oxford University Press. 1998.

bir konseptda olam haqidagi inson uchun juda muhim bilimlar birlashtirilgan bo'lib, koseptlar tizimi olam tasvirini yaratadi, unda insonning voqelik, reallik haqidagi konsepti aks etadi va ular asosida inson olam haqida fikr yuritadi.

Ye.I. Golovanova fikriga ko'ra, olam konseptual tasvirining asosiy elementlari bo'lgan konseptlar – bilimlarning mazmunli tezkor birliklaridir. Inson fikrlashi va nutqiy faoliyati jarayonida, aynan, shu birlik va tuzilmalarni qo'llaydi<sup>78</sup>.

Konsept (lot. conceptus – anglash, konsept), fikr ob'ekti haqidagi bilim, tasavvur, fikrlarning umummilliyligini aks ettiruvchi struktur- mazmuniy ong birligi hisoblanadi. "Konsept" atamasi o'z tavsifi va tadqiqot uslubidagi ba'zi farqlar bilan zamonaviy tilshunoslikning turli yo'nalishlarida faol qo'llanilmoqda.<sup>79</sup>

V.A. Maslova konseptlar sifatida har qanday konsept emas, balki ularning eng muhimlari, faqat milliy madaniyatga asoslanganlari muhim ekanligini ta'kidlaydi<sup>80</sup>.

Ko'pgina yangi ilmiy konseptlar singari, "konsept" ma'lum darajada patos bilan, ba'zan esa kognitiv metafora orqali kiritilgan: u "ko'p o'lovchi hislar to'plami", "hayotning semantik qismi"<sup>81</sup>, "Madaniyat geni"<sup>82</sup>, "ma'noning ma'lum bir kuchi"<sup>83</sup>, "xotira birligi", "bilim kvanti", "aqliiy operatsiyalar mikrobi" va hatto "tumanli narsa", "konsept" deb nomlangan<sup>84</sup>. Hozirgi kunda "konsept" atamasi tilshunoslikning turli sohalarida keng qo'llaniladi. U kognitiv, semantik va madaniy tilshunoslikning shartli tizimiga kirdi<sup>85</sup>. Hozirgi zamon tilshunosligida kontseptni o'rganish juda muhim ahamiyatga ega. Biroq konseptning mohiyatini tushunishga bo'lgan har qanday urinish bir qator eng xilma-xil qarashlar bilan bog'liq. Uning kognitiv tilshunoslik sohasidagi jadal izlanishlari "konseptsiya" atamasini

<sup>78</sup> Голованова Е.И. Введение в когнитивное терминоведение. Учебное пособие – Москва Флинта, 2011 – С. 1.

<sup>79</sup> Большая Российская энциклопедия // <https://bigenc.ru/linguistics/text/2094246>

<sup>80</sup> Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. Учебное пособие – Минск Тетра Системс, 2005 – С. 256.

<sup>81</sup> Clark H., Marshall C., Definite Reference and Mutual Knowledge. Elements of Discourse Understanding – Cambridge University Press, 1981. – P. 10–63.

<sup>82</sup> Talmy L. Toward a Cognitive Semantics // Concept Structuring Systems. Volume I. The MIT Press – P. 104–118.

<sup>83</sup> Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Вып. 1. – Архангельск, 1997. – С. 32–45.

<sup>84</sup> Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста – М.: Academia, 1997 – С. 267–279.

<sup>85</sup> Clark H., Marshall C. Definite Reference and Mutual Knowledge // Elements of Discourse Understanding – Cambridge University Press, 1981. – P. 10–63.

tushunishda katta nomutanosiblikni ko'rsatdi. Mos kelmasliklar noaniqlik va terminologik chalkashliklarni keltirib chiqaradi<sup>86</sup>.

Shunday qilib, "konsept" atamasi bir nechta ilmiy yo'nalishlar uchun soyabon atamadir. Birinchi navbatda kognitiv psixologiya va kognitiv lingvistika uchun, fikrlash va bilish, ma'lumotlarni saqlash va o'zgartirish bilan shug'ullanadigan, shuningdek, madaniy tilshunoslik uchun hali ham aniqlovchi nazariyaning postulatlar va asosiy kategoriyalar bilan shakllangan chegaralaridir. Faraz qilishimiz mumkinki, matematikada bo'lgani kabi, kognitiv fanda ham konsept aniqlanmaydigan, intuitiv ravishda tushuniladigan asosiy aksiomatik kategoriyadir, hamda konsept, g'oyalalar, ranka, skript, geshtalt va boshqalarning giperonimi.<sup>87</sup>

O'zbek tilida yolg'izlik mazmunli birliklarning ifodalanish shakliga ko'ra ikki semantik kategoriyaga bo'lish mumkin:

1. Yolg'izlik semasiga ega leksik birliklar.
2. Yolg'izlik mazmunini ifoda etuvchi noverbal vositalar.

Yolg'izlik mazmunini ifoda etuvchi leksik birliklar sirasida eng faol qo'llanuvchilardan quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Lingvokulturologiyada shaxs tadqiqot mavzusi sifatida asosan faoliyat toifalari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan. Bunday tadqiqotlar doirasida shaxs rivojlanishining yoshga bog'liq qonuniyatlarini, uning eng muhim tarkibiy qismlari va rivojlanish ko'rsatkichlarini, omillarini aniqlashga imkon beradigan muhim natijalar olindi. Shu bilan birga, shaxsni va uning muhim xususiyatlarini tushunishning bunday "bir tomonlama" xususiyati ko'p jihatdan ushbu konseptsiyaning o'zi va uning psixologik mazmuni ko'p jihatdan boshqa tushunchalar qisqarishiga olib keldi. Shunday qilib, shaxsiyat, uning xususiyatlari va rivojlanishi motivlar va ularning ierarxiyasi, hissiy sohaga tegishli psixologik hodisalar, iroda rivojlanishining namoyon bo'lishi va o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar bo'yicha baholandi. Faoliyat toifasiga qisman qarama-qarshi va shu bilan

<sup>86</sup> Грузберг Л.А. Концепт // Стилистический энциклопедический словарь русского языка. – М.: Флинта: Наука, 2006 – 696 с.

<sup>87</sup> Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. – М.: Academia, 1997. – С. 280–288.

birga qo'shimcha sifatida aks ettirish toifasi deb atash mumkin. Bu asosiy falsafiy tushuncha va tegishli psixologik voqelikni xulosa qilib bo'lmaydi va faoliyatga qisqartirilmaydi. Aks ettirishni psixologik o'rganish nuqtayi nazaridan, yolg'izlik konsepti alohida o'rin tutadi, chunki inson o'zini o'zi tark etgani va uning ichki dunyosiga, faoliyati va harakatlarining asoslariga e'tibor berishga majbur bo'lganligi sabablidir. Ilmiy nuqtayi nazardan, yolg'izlik eng kam ishlab chiqilgan tushunchalardan biridir. Shu bilan birga, yolg'izlik hodisa sifatida o'rganilmagan va umuman o'rganilmagan degan da'vo noto'g'ri va adolatsiz bo'lar edi.

Ushbu konseptni turli jihatlari bilan yoritgan ko'plab faylasuflar guruhidan tashqari, bir qator G'arb sotsiologlari, psixologlari, shifokorlari nazariy va amaliy fanlarning turli nuqtayi nazaridan yolg'izlikni o'rganish va tavsiflashga urinishgan. Ular orasida A. Freyd, V. Vund, K. Lorenz, Uilyam A. Sedler, Tomas B. Jonson, E. Fromm, L.E. Peplo, B. Torash, K. Rojers, R. Vays va boshqalar bor. G'arb ilmiy fikrlari haqida gapirganda, bugungi psixologik tadqiqotlar kontekstida, 40-yillar va 80-yillarning boshidagi chuqur tadqiqotlar davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar yuz bermaganligini ta'kidlash muhimdir. Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan gipoteza va taxminlarning qo'shilishi va ma'lum rivojlanishi sotsiologik nazariyalar doirasida tadqiqotlarning empirik bazasi faol shakllantirildi.

To'qsoninchi yillarning boshidan boshlab tadqiqotlar asta-sekin tizimning xarakterini oladi, ular chuqurlashadi, o'rganilayotgan hodisaning ayrim jihatlari aktualashtiradi. "Yolg'izlik" tushunchasi muammolari bilan bevosita bog'liq masalalar, ishlar va kitoblarda ko'p muhokama qilindi. "Yolg'izlik" konsepti muammolari bo'yicha turli xil tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "yolg'izlik" shaxsning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq, ko'pincha bu shaxsning noqulayligini keltirib chiqaradi, u shaxsiy faoliyat bilan bog'liq, shaxsning ijtimoiylashuvi va individualizatsiyasiga ta'sir qiladi. "Yolg'izlik" konsepti bilan shug'ullangan ko'plab tadqiqotchilar uning shaxs ichki dunyosiga yo'naltirilganligi hamda o'z-o'zini bilish va aks ettirish qobiliyati bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydilar. Mazkur tadqiqotlar ma'lumotlarini tahlil qilish yolg'izlik hodisasida markaziy o'rin yolg'izlik tajribasiga tegishli degan taxminni amalga oshirishga

imkon beradi. Shunday qilib, biz yolg'izlik tajribasini an'anaviy ravishda hissiy sohani rivojlantirish doirasida ko'rib chiqilganidek emas, balki tajriba ongning birligi ekanligiga ishonib, muhim shaxsiy xususiyat sifatida ko'rib chiqishga asosimiz bor.

Yolg'izlik konseptini o'rganish tarixida quyidagi davrlar shartli ravishda ajratilishi mumkin:

– yolg'izlik haqidagi eskiz g'oyalar davri subyektiv tajriba sifatida (1800-yillarning boshlariga qadar);

– yolg'izlik konseptini o'rganishning falsafiy asoslarini shakllantirish davri (XX asming XIX 30-yillari boshlari);

– yolg'izlik psixologiyasi va sotsiologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlar davri (1938–1980): xususiy nazariyalar va amaliy ishlanmalar davri (1980 nas. vaqt).

Ijtimoiy-tarixiy tahlil mantig'i "yolg'izlik" tushunchasini teosofik postulatlardan ijtimoiy-falsafiy nazariyalar orqali ijtimoiy paradigmalarga talqin qilish dinamikasini nazarda tutadi. Turli tarixiy davrlarda turli millat, madaniyat va e'tiqod vakillari yolg'izlik haqida bir-biridan farq qiladigan fikrlarga ega edilar. "Birlashtirilgan" dinlararo postulatda yolg'izlik Xudodan uzoqlashish deb aytilgan, chunki iymonli odam ta'rifi bo'yicha yolg'iz emas. Ko'pgina falsafiy va teologik yo'nalishlar yolg'izlikni ikki tomonlama ko'rib chiqdilar. Ko'pgina zamonaviy dinlarda, V. Sadler va Tomas B. Jonson haqli ravishda ta'kidlaganidek, "...yolg'izlikning chuqur tarangligi va uni hal qilish da'volari seziladi".

Psixologik jihatdan yolg'izlik – bu boshqa odamlar bilan yaqin ijobiy aloqalar yo'qligi yoki mavjud aloqani yo'qotish qo'rquvi tufayli yuzaga keladigan odamning o'ziga xos hissiy holatidir.

Ushbu talqinga ko'ra, yolg'izlik "izolyatsiya" tushunchasi bilan sinonim bo'lib, salbiy ma'noni anglatadi. Ammo shunga qaramay, ba'zi hollarda yolg'izlik ijobiy funksiyani ham bajaradi. Masalan, yolg'izlik ilhom manbasi bo'lib qoladigan holatlar ko'p uchraydi, bu musiqachilar, rassomlar va yozuvchilar ijodida o'z ifodasini topadi.

Yolg'izlik, o'zini past baholaydigan odamlarga xosdir. Ular o'zlarining ijtimoiy aloqalarini kengaytirishni xohlashadi, lekin o'z-o'ziga bo'lgan past baho ularga buni qilishga imkon bermaydi. Natijada, yolg'izlik tuyg'usi kuchayadi va o'z-o'zini hurmat qilish, aksincha yanada pasayadi, bu esa og'ir depressiyaga olib kelishi mumkin. Ba'zi hollarda yolg'izlik psixikadagi patologik o'zgarishlar (shizofreniya, autizm va boshqalar) bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yolg'izlik har bir kishi tomonidan individual ravishda boshdan kechiriladi, unga turli hodisalar sabab bo'lishi mumkin. Yolg'izlik hissi sizning shaxsiy tajribangizdan kelib chiqadi, masalan, boshqa odamlar bilan vaqt o'tkaza olmaslik ta'sir qilishi mumkin. Yolg'izlik hissiga turli omillar ta'sir qilishi mumkin:

- hayotdagi o'zgarishlar;
- yaqinlarning yetishmasligi;
- yaqinlaringizning o'limi;
- qo'rquv va noto'g'ri qarashlar;
- kasallik;
- xotira muammolari;
- yashash joyi;
- moliyaviy qiyinchiliklar...

Yolg'iz kishilar hayotdagi o'zgarishlarga juda individual tarzda munosabatda bo'ladilar. Yangilik va o'zgarish yolg'izlikka olib kelishi mumkin. Odatiy sharoitlar bizni atrofimizdagi dunyo bilan bog'lab turadi, ammo o'zgarishlar begonalashish va izolyatsiya tuyg'usini keltirib chiqarishi mumkin. Yolg'izlikning oqibatlaridan biri kamroq ijtimoiy aloqadir. Do'stlarni yo'qotish izolyatsiya va yolg'izlik tuyg'usiga olib kelishi mumkin.

Turli kasalliklar sizning harakatlanish va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatingizni ham buzishi mumkin. Xotira buzilishlari nima bo'layotganini eslab qolish qobiliyatimizga ta'sir qiladi va biz kimdir tashrif buyurganini yoki bizga qo'ng'iroq qilganini unutishimiz mumkin. Qarindoshlar va tanishlar orasidagi uzoq masofalar ham aloqalar sonini kamaytiradi. Boshqa odamlar bilan uchrashish istagimizga va munosabatlardan qo'rqish ta'sir qilishi mumkin.

Xudo bilan bo'lgan munosabati kontekstida inson yolg'izligi muammosi birinchi marta nasroniylarning apologlaridan biri Aurelius Avgustin tomonidan qo'yilgan. Yolg'izlik, uning tushunchasida, inson – yer yuzidagi, o'lik mavjudot va Xudo – eng yuqori mavjudot sifatida ajratuvchi xususiyat bo'lib xizmat qiladi. M.Buberning "... bu Aristotelning dunyoning "sferik" yaxlit rasmining o'limining tabiiy natijasi edi. ... O'lgan sfera tizimining o'mini bir – biriga dushman bo'lgan ikkita mustaqil shohlik-yorug'lik Shohligi va qorong'ulik Shohligi egalladi. Ruh va tanadan tashkil topgan odam ikkala shohlik o'rtasida bo'linib, ular orasidagi jang maydoniga aylandi, go'yo to'xtatilgan, boshpanasiz holatda edi ... men nima, Xudoyim? Mening tabiatim nima?" – deb so'raydi Avgustin. U odamni grande profundum, buyuk sir deb ataydi..."

Yolg'izlikka qarashning bir varianti Voiz kitobida (Eski Ahd) keltirilgan, bu yerda yolg'izlikning jismoniy namoyon bo'lishi, sovuq, oxir-oqibat himoyasizlik sifatida qabul qilingan. "Inson yolg'iz, boshqasi yo'q; uning o'g'li ham, ukasi ham yo'q; va uning barcha ishlarining oxiri yo'q, ko'zlari boylikka to'yingan emas... va bu behuda va yomon ish! ... (keyingi o'rinlarda matnda)", deb yolg'izlikka ta'rif berilgan.

Tomas Vulfning ta'kidlashicha, yolg'izlik – insoniyat jamiyatining universal holati bo'lib, har bir individ hayotidagi sinov hisoblanadi<sup>88</sup>.

Jan Kalvin shaxsida yolg'izlikni ilohiy g'oyani anglash uchun majburiy marosim deb biladi. Shuningdek, marosim bilan musulmon an'analarida yolg'izlik-yolg'izlik mazmuni bog'liq bo'ladi. Islom qonunlariga ko'ra, "yolg'izlik" tushunchasi masjidida ma'lum vaqt davomida xudojo'y hunarmandchilikni amalga oshirish niyatida bo'lishini anglatadi.

Islom dinida ham ta'kidlanishicha, yolg'izlik faqat yaratganning o'ziga xosdir. Uning mavjudligi Payg'ambarning sunnati va Islom olimlarining bir ovozdan qabul qilgan Muqaddas Qur'on tomonidan tasdiqlangan.

<sup>88</sup> Wolfe, Thomas. "The Face of the War," in *From Death to Morning*, New York: Sunshine Press, 1980, pp. 71–90.

Buning isboti sifatida Qur'ondan oyatlar keltirilgan: "Ibodot joylarida xudojo'y bo'lganingizda ularga tegmanglar", "uyimni aylanib yuradiganlar, qolganlar, sajda qiluvchilar uchun tozalang" va Oyshadan berilgan hadisda "Allohning xabarchisi (Alloh taolo. Alloh unga baraka bersin va salom bersin) oxirgi o'n kun ichida har bir Ramazon ro'za tutdi va masjidni tark etmadi" (Al-Buxoriy, Muslim). Arab etnosini o'rganayotganda T. Xoll Arab o'z qo'shnilariga qanchalik yaqin bo'lishni xohlamasin, vaqti-vaqti bilan yolg'iz qolishga intilishini ta'kidlaydi. Yolg'iz qolish uchun u aloqa liniyalarini kesib tashlaydi. U o'ziga keladi va bu g'amxo'rlik uning atrofidaqilar tomonidan hurmat qilinadi. Uning o'ziga kelishi tana tilida shunday fikr bildiradi: "Menga yolg'izlik kerak, men jismonan siz bilan bo'lsam ham, sizga tegsam va siz bilan yashasam ham, qobig'imga chekinishim kerak".

Islom ensiklopediyasida "Uzlat" (arab. – chekinish; kishilardan chetlashish; uzlat etish – **yolg'izlikni ixtiyor qilish**) – xoli joy; tanholik; hech nimaga bog'lanmaslik; dunyoning xilma-xil g'avg'olaridan forig'lik. So'fiylar uchun Muhammad (sallallohu alayhi va sallam)ning Hiro tog'ida o'tkazgan undagi hayotlari ibrat va namuna bo'lgan. Tasallallohu alayhi va sallamvufda "u" deyilganda Shayx, pir, murshid rahnamoligi va ko'rsatmalariga binoan muridning maxsus bir gushada berkinib, ibodat va zikr orqali Alloh bilan zohiran aloqa bog'lashi tushuniladi. Kamida 40 kun davom qiladigan bu jarayonga "chilla" deyilgan. Din va tasallallohu alayhi va sallamvufda hayotni batamom xilvatda o'tkazish lozimligi zinhor targ'ib etilmagan. Tasallallohu alayhi va sallamvufga ko'ra, "u" hayotdan qochish, kundalik turmushdan ajralib yashash, odamlardan bezish ehtiyojimas, balki ma'lum muddat ruhiy kamolotga erishib, yana faoliyatni davom ettirishdir<sup>89</sup>.

Bu o'zini izolyatsiya qilish, dunyodan, jamiyatdan, oiladan voz kechish, cho'l joylarda yolg'izlikni anglatadi. Bu hodisa qadimgi Sharq dinlari (buddizm, braxmanizm, yahudiylik) uchun ham, xristianlik uchun ham xosdir, bu erda

<sup>89</sup> Sahih hadislar to'plami. <https://hadis.uz/> (murojaat sanasi 11.05.2023)

xristianlik dastlab I–V asrlarda xristianlarning ta'qib qilinishi munosabati bilan keng tarqalgan. Keyinchalik, zohidlik imom nomidan ixtiyoriy astsetizmga, diniy o'zini takomillashtirish harakatiga aylanadi. Yolg'izlik va falsafiy maktablar, ta'limotlar, yo'nalishlar haqida gapirganda, biz qadimgi Yunoniston, Rim, qadimgi Sharqni ongli ravishda e'tiborsiz qoldiramiz, chunki bu davr vakillarining yolg'izlik konsepti haqidagi qarashlarni tahlil qilish alohida ishning mavzusi hisoblanadi. Yolg'izlik o'z ota-onasi sifatida mavjud va inson o'z hayoti uchun javobgar bo'lgan darajada, u yolg'iz. Mas'uliyat mualliflikni anglatadi, sizning muallifligingizni anglash sizni yaratadigan va himoya qiladigan boshqa odam borligiga ishonishdan voz kechishni anglatadi. O'z-o'zini yaratish harakati chuqur yolg'izlik bilan birga keladi. Inson koinotning kosmik befarqligini anglay boshlaydi. Ehtimol, hayvonlarda cho'pon va boshpana hissi bor, lekin bilish istagi la'nati bo'lgan odam muqarrar ravishda mavjudlikni kashf etadi.

Ingliz tili lug'atlarida yolg'izlik tushunchasi quyidagicha izohlanagan:

*Noun solitude /'sɒltju:d/*

1. the state or situation of being alone. "She savoured her few hours of freedom and solitude".

**Synonymy loneliness /solitariness**

2. a lonely or uninhabited place. "The battle to preserve beloved solitudes flared up all over the country"<sup>90</sup>.

"Yolg'izlik" tushunchasining semantik tahlili, shuningdek, atamaning ikki xil talqinini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Tanlangan semantik juftliklarning eng yuzaki tahliliga asosanib, ularning psixologik asoslari va yozishmalarini ko'rish qiyin emas. "Yolg'iz" o'z izolyatsiyasini boshdan kechirishning chegarasi sifatida, jamiyatdan "ajralib chiqish" shu bilan birga o'z universumidagi cheklangan yopilish, "tun" eng noaniq, bezovta qiltuvchi, ko'pincha ongsiz ravishda qo'rqinchli vaqtinchalik fazoviy koordinata sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, "kecha" qadim zamonlardan beri odamlar uchun eng himoyasiz davr sifatida ifodalanadi. Shu

<sup>90</sup> Cambridge dictionary. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/solitude> (murojaat sanasi 09.09.2022)

bilan birga "kecha" yakuniy vahiy vaqti sifatida, himoya vositalarini, niqoblarni olib tashlash, haqiqatni aniqlashda talqin qilish mumkin. Ushbu talqinda "bir kecha" va tergov "yolg'izlik"ni shaxsning o'ziga xosligini anglash bilan bog'liq holat deb hisoblash mumkin.

"Tajriba-bu ajralmas shaklda, bir tomondan, atrof-muhit, boshdan kechirayotgan narsalar taqdim etiladigan birlik bo'lib boshqa tomondan, men buni qanday boshdan kechirayotganimni taqdim etaman, ya'ni shaxsiyatning va atrof-muhitning tajribasida, muhitdan tanlangan narsalar, ma'lum bir shaxs bilan bog'liq bo'lgan va shaxsiyatdan tanlangan daqiqalar, ushbu voqeaga uning xarakterining konstitutsiyaviy xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan. Shunday qilib, tajribada biz har doim shaxsiy xususiyatlarning ajralmas birligi va tajribada aks ettirilgan vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan shug'ullanamiz".

Bunday holda, aks ettirish jarayonida tajribani intellektualizatsiya qilish paytigacha, biz psixo – emotsional hislar va ta'sirlar majmuasi, aks ettirish uchun o'ziga xos "xom material" va ontogenezning ma'lum bir bosqichida u taqdiqot mexanizmi vazifasini bajaradi va bundan keyin tajribani tuzish, bu holda aks ettirish bilan shug'ullanamiz. Yolg'izlik tajribasining hissiy-affektiv tarkibiy qismini hisobga olgan holda, biz aslida o'ziga xos hissiy kompleks haqida gaplashamiz. Biz yolg'izlik tajribasini adaptiv funktsiyalarga ega bo'lgan eksperimental motivatsion hodisa sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Affektiv-kognitiv o'zaro ta'siri aks ettirish doirasidagi mazmunli jarayon sifatida ko'rib chiqsak, biz murakkab affektiv – kognitiv tuzilma affektiv-kognitiv yo'nalishni, ko'proq global shaxsiyat xususiyatini shakllantirishi mumkinligi haqida gapiramiz. Bizning holatda, bu shaxsning muhim xususiyatidir. Yolg'izlik tajribasi, shuningdek, ularni amalga oshirish orqali barcha shaxsiy jarayonlarga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi, ba'zi hollarda katalizator vazifasini bajaradi – aks ettirish jarayoni uchun – shaxsiy o'sish mexanizmining bir qismi boshqalarida stabilizator sifatida o'z-o'zini anglash uchun "aks ettirish-yolg'izlik tajribasi" o'zaro ta'siri bilan bog'liq.

Yolg'izlikni boshdan kechirish muammosini hisobga olgan holda quyidagilarni ta'kidlash kerak: yolg'izlik tajribasining hissiy tarkibiy qismiga

nisbatan, bu tajribani aks ettirish, anglash va keyinchalik konseptual birliklarda mujassamlanish uni amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, "yolg'izlik" atamasining mazmunli analoglarini aniqlash nuqtayi nazaridan bir nechta fikrlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ularni mazmunli mantiqqa muvofiq qurish orqali biz eng "yumshoq variant" "yolg'izlik" tushunchasi ekanligini aytishimiz mumkin. Buning ortidan yolg'izlikni ikki tomonlama holat sifatida ko'rib chiqish kerak, keyin biz o'tkir hissiy tajriba haqida gapirish va yakuniy ta'rif "yolg'izlik holati"ni izolyatsiya variantiga kamaytirishdir.

Yolg'izlik har ikki tilda insonning ichki kechinmalari va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini aks ettiruvchi murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tilida yolg'izlik odatda ajralish, tanholik va ma'yuslik bilan bog'lanadi. Insonning jamiyatdan, yaqinlardan uzoqlashuvi salbiy konnotatsiyada tasvirlanadi. Biroq ba'zan, ayniqsa falsafiy va badiiy matnlarda, yolg'izlik tafakkur va ruhiy yetuklikka eltuvchi ijobiy jarayon sifatida ham talqin qilinadi.

Ingliz tilida esa "loneliness" tushunchasi yanada ko'p qirrali. Bu yerda emotsional yolg'izlik, ijtimoiy uzilish va ekzistensial bo'shliq kabi turli darajadagi holatlar farqlanadi. Ingliz tilida loneliness odatda salbiy ma'noda ishlatiladi, ammo solitude – o'z ixtiyori bilan tanlangan yolg'izlik – ruhiy xotirjamlik va ichki boylikni ifodalashi mumkin. Bu farqlanish ingliz madaniyatida shaxsiy tajribaga ko'proq urg'u berilishini ko'rsatadi.

Leksik-semantik jihatdan o'zbek tilidagi "yolg'izlik" atamasi "tanholik, yetimlik, ajralish" kabi sinonimlar bilan qo'llaniladi. Ingliz tilida esa "loneliness, solitude, isolation" kabi atamalar turli konnotatsiyalarni ifodalaydi. Har ikki tilda ham yolg'izlik konsepti sovuqlik, bo'shliq va kimsasizlik kabi kognitiv metaforalar orqali ifodalanadi, ammo ingliz tilida ushbu holat ko'proq individual his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, o'zbek tilida yolg'izlik ko'proq jamiyatdan ajralish va ruhiy iztirob bilan, ingliz tilida esa individual tajriba va shaxsiy kechinmalar bilan ifodalanadi. Shunday qilib, har ikki tilning leksik-semantik tizimida yolg'izlik o'ziga xos madaniy va psixologik qamrovga ega.

## 2.2. Ingliz va o'zbek tillarida "hijron" konseptining leksik-semantik xususiyatlari

Ingliz tilidagi "hijron/ajralish" tushunchasini ifodalaydigan leksik vositalarni tahlil qilish uning o'zbek tilidagi ma'nosi bilan qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida "hijron/ ayriliq" kontseptining mazmunini tahlil qilish ingliz tilida so'zlashadigan madaniyatda "hijron/ajralish" tushunchasini idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq chuqur ma'nolarni ochib berishning bir usuli hisoblanadi.

Tadqiqotning muhim jihati shundaki, biz "hijron/ayriliq" tushunchasini ko'rib chiqamiz va o'rganilayotgan kontseptsiyaning kognitiv-semantik tuzilishi nuqtayi nazaridan ingliz tilining leksikografik manbalarini tahlil qilamiz.

So'zning kognitiv va semantik tuzilishi va uning rivojlanish tarixining nazariy tavsifi so'zning katta semantik kuchi, uning ichki semantik tashkilotining murakkabligi, heterojenligi va nomuvofiqligi g'oyasini ochib beradi, shuning uchun "hijron/ayriliq" tushunchasini o'rganish ushbu umumiy tushuncha bilan bog'liq ismlarning semantik tuzilishiga murojaat qilishni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, o'zbekcha "hijron" (bu so'z arab tilidan kirib kelgan bo'lib asosan, badiiy matnda qo'llaniladi) ingliz tilida "ayriliq" so'zining analogi inglizcha ajratish so'zidir. Ushbu kontseptsiyaning yadro xususiyatlarini ingliz tilida ko'rib chiqamiz. Shu maqsadda biz tahlilga so'nggi yillardagi bosma va elektron nashrlarni o'z ichiga olgan nufuzli izohli lug'atlarni jalb qildik. "Ayriliq" nomini aniq tahlil qilishda qiymatni aniqlash bosqichi kabi muhim omil hisobga olindi, chunki zamonaviy leksikografik amaliyotda so'zlarning ma'nosini talqin qilish ko'pincha ularning ahamiyati va til hamjamiyati tomonidan foydalanish chastotasi tartibida keltirilgan.

### Ayriliq ot

**Judo bo'lish, judolik holati.**

Ayriliq o'limdan qattiq. *Maqol.*

Gulnor butun yuragi bilan Yo'lehiga maftun, uning ko'ksini sevgi hasrati va ayriliq lim-lim to'ldirgan. *Oybek, Tanlangan asarlar*<sup>91</sup>.

Ushbu kontseptni ingliz tilida o'rganish uchun ingliz tilining quyidagi izohli lug'atlaridan ajratish so'zining ta'riflari jalb qilingan: Kembrij lug'ati, Linkoln yozish lug'ati, Kollinz Kobuillni o'rganish lug'ati, Eyfemizmlarning Oksford lug'ati, ingliz tilining Longman lug'ati va madaniyati. Ushbu lug'atlar "ayriliq" (hijron) tushunchasi bilan bog'liq holda faol ishlatiladigan leksemalar doirasini aniqlashga imkon beradi.

Cambridge Advanced Learner's Dictionary ma'lumotlariga ko'ra, "Separation" konsepti quyidagi ma'nolarga ega:

1. To (cause to) divide into parts.
2. To make people move apart or into different places, or to move apart.
3. To consider two people or things as different or not related.
4. To start to live in a different place from your husband or wife because the relationship has ended.<sup>92</sup>

Cambridge lug'atlarda keltirilgan ta'rifga ko'ra, ajratish leksemasining zamonaviy semantik tuzilishining yadrosi ma'no: ajratish, ayriliq.

Macmillan English Dictionaryning 1383-betidagi ta'rif tahliliga ko'ra, keyingi eng muhim narsa "ajratilgan vaqt" degan ma'noni anglatadi.

Macmillan English Dictionaryning 1384-betida esa, Separation ismining periferik, eng kam ishlatiladigan ma'nosi "er-xotin tomonidan rasmiy ravishda turmush qurgan holda alohida yashash to'g'risida qabul qilingan qaror" degan ma'noni anglatadi. Masalan, "Her parents are separated but not divorced". Shuningdek, unda "Yadro va Periferiya o'rtasidagi oraliq pozitsiyani "parchalanish", "ishdan bo'shatish" qiymatlarini egallaydi" deyilgan.

Umuman olganda, lug'atlarga ko'ra, separation (ayriliq/ajralish) so'zi zamonaviy ingliz tilida ko'p ma'noli bo'lib, u ikkita asosiy leksik-semantik

<sup>91</sup> O'zbek tilining izohli tug'ati 1-tom. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2020. – B. 49.

<sup>92</sup> Cambridge dictionary URL: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/solitude> (murojaat sanasi: 21.01.2023)

variantga yoki ikkita denotativ sememaga ega: *The act or process of separating va the state of being separated*. Ikkala semaning ta'riflari quyidagi semantik xususiyatlarni namoyish etadi: *cessation of cohabitation, stop living together, being apart*.

"Ayriliq/hijron" kontseptining kontseptual asosining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash faqat ajratish ismining semantik tuzilishini tahlil qilish bilan cheklanmaydi, chunki ushbu leksemani aniq o'rganishdan ko'rinib turibdiki, uning semantikasi ajralish holatining semantik belgilarini ham, harakat belgilarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlarning xususiyatlarining aktualizatori *to separate* fe'lidir va ularning mohiyati ingliz tilidagi leksikografiyada ushbu fe'lning ma'nolarini aniq ifodalashni o'rganayotganda aniqlanadi.

Zamonaviy leksikografik manbalarda *to separate* fe'li to'rtta ma'no bilan belgilanadi, ularning eng dolzarb va yuqori chastotali ma'nosi *to divide into different parts or groups; to divide things into different parts or groups*. Ham jonli, ham jonsiz subyektlar agent sifatida harakat qilishlari mumkin. Masalan, "*at school they always tried to separate Jane and me because we were troublemakers*". O'rganilayotgan kontseptning ontologik jihati "consider two people or things as different or not related" yoki "If you separate one idea or fact from another, you consider them individually and see or show the distinction between them" ma'nolarida namoyon bo'ladi. Masalan, "it is difficult to separate the two aims"<sup>93</sup>.

Ko'chib o'tish ma'nosida; odamlarni yoki narsalarni ko'chirishga harakat qilish ijtimoiy jihatning (ajralish ijtimoiy munosabatlarning bir shakli sifatida) "biz several different search parties va ijtimoiy-siyosiy (harbiy to'qnashuv natijasida ajralish) "The war separated many families"ning kombinatsiyasi mavjud. Yorqin ifodalangan holat va ajralish harakatining mavjudligi *separated* sifatdoshining ma'nosida dolzarbdir: "turmush o'rtoq bilan uzoq umr ko'rish". Masalan, "Her parents are separated but not divorced; he's been separated from his wife for a year"<sup>94</sup>.

<sup>93</sup> Collins COBUILD Learner's Dictionary. – London: HarperCollins Publishers, 2018. – 1000 p.

<sup>94</sup> Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. – Oxford: Macmillan Education, 2017. – 1383 p.

Qarama-qarshilik, ziddiyat ko'rinishidagi ajralishning og'zaki namoyishi "*husband or wife because the relationship has ended*" fe'lining ma'nosida amalga oshiriladi. Masalan, "My parents separated when I was six and divorced a Couple of years later"<sup>95</sup>.

Yadro va periferiya o'rtasidagi oraliq pozitsiyani yangilaydigan "ishdan bo'shatish"ni ajratish alohida ahamiyatga ega<sup>96</sup>.

Bundan tashqari, Longman dictionary of English Language and Culture lugatining 1225 betida "to separate fe'lining yana bir ta'rifi mavjud: to leave a mixture and form a mass by itself. Masalan, "if you heat the sauce too much, the butter will separate out" deyilgan, "Separation"ning yana bir kontseptual komponentini – jismoniy jihatini yangilaydi.

Kontseptsiyani alohida, alohida – separate – 1 – ma'nosi: tavsiflovchi sifatlar. "Apart from another or others". Masalan, "The two men ate together but asked for separate checks". 2 – ma'nosi: "different; distinct". Masalan, "In the 1800's men and women usually attended separate colleges"<sup>97</sup>.

Separation belgilarining obyektiv sifatlaridan tashqari, ma'lum bir vaziyatning sifat belgisining semantik belgisi "birgalikda emas" degan ma'noni anglatuvchi separately qo'shimchadir. Masalan, "Detectives interviewed The men separately over several days"<sup>98</sup>.

Yuqoridagilarni sarhisob qilsak, "ayriliq/hijron" tushunchaning leksik-semantik tarkibiy qismi ko'p qatlamli tashkilotga ega, degan xulosaga kelishimiz mumkin, bu lingvistik belgining noaniqligidan kelib chiqadi.

"ayriliq/hijron" tushunchasing ko'rib chiqilgan ma'nolari uning ingliz tilida so'zlashadigan jamiyatda ajralish hodisasining muhim belgilari to'plamini o'z ichiga olgan mazmunli minimumini ajratishga imkon beradi:

1. Ikki yoki undan ortiq ishtirok etuvchi tomonlar ajralish subyektlari;
2. Insonga tegishli bo'lmagan holatlar;

<sup>95</sup> Cambridge dictionary. <http://dictionary.cambridge.org> (murojaat sanasi 15.05.2023)

<sup>96</sup> Holder, R. W. A Dictionary of Euphemisms. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 354 p.

<sup>97</sup> Morris, Christopher G. The Lincoln Writing Dictionary. – Orlando, Fla.: Harcourt Brace Jovanovich, 1989. – 687 p.

<sup>98</sup> Cambridge dictionary. <http://dictionary.cambridge.org> (murojaat sanasi 15.05.2023)

3. O'zaro nomuvofiqlik, ishtirokchilardan birining boshqasining talablari yoki umidlariga mos kelmasligi;

4. Harakatning niyati / nodonligi;

5. O'zaro munosabatlarni tiklash yoki ular tugaganidan keyin bir muncha vaqt o'tgach aloqa qilish imkoniyati.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuvchi lingvokulturada "ayriliq/hijron" tushunchalarning prototipik g'oyasi ushbu hodisani muayyan holatlar yoki kelishmovchiliklar tufayli ikki (yoki undan ortiq) tomonlarning o'zaro ta'siri sifatida aniqlashga to'g'ri keladi.

Ta'kidlaganimiz kabi, o'zbek tilida mavjud bo'lgan hijron tushunchasi boshqa tillarda uchramaydi, mazkur tushuncha mumtoz she'riyatga ko'proq tegishli bo'lib ayriliq ma'nosini ifoda etadi.

Ma'lumki, Sharq she'riyatida ishq mavzusi ko'p hollarda bevosita hijron va ayriliq motivi orqali tasvirlanadi. Bu holat Bobur she'riyati uchun ham xosdir. Bobur faqat an'anaviy oshiqlikda emas, inson va shohlikda ham hijron shoiri. Uning ko'nglida yordan judolik hislari bilan elu yurtidan ayriliq his-tuyg'ulari uyg'unlashib ketgan. Shuning uchun uning g'azal va ruboiylarda Hijron poetik obraz darajasiga ko'tarilgan, hatto shaxslantirilgan. Boburning hasbi holidan puxta xabardor bo'laman degan kishi avvalo shoirming hijron va g'urbat xususidagi she'rlarni atroflicha mushohada qilmog'i kerak.

Boburning asosiy g'animi va uni doimiy ravishda qiynovchi shafqatsiz muxolifi hijron bo'lgan.

*Hijron g'amidin zaif jonim so'ldi,*

*G'urbat alami birla ichim qon bo'ldi.*

Yordan judolik, yaqinlardan, molu davlatdan ayrilish albatta og'ir. Biroq hijronning eng azobli, eng og'irlisi vatandan yiroqlik. Bunda xususan yurtga qayta olmaslik tuyg'usi chinakam qiynoqqa aylanadi. Shu boisdan shoir olis Hindistonda turib ayriliq azoblarini tortar ekan, tassavvurida "jon qushi" Hijron qafasida bo'g'ilib, g'urbat "aziz umrni" soat sayin kemirayotganday bo'ladi.

*Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,*

*G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.*

*Ne nav' bitay firoqu g'urbat sharhin -*

*Kim, ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.*

Haqiqatda ham "firoqu g'urbat"ni sharhlash, sharhlaganda ham uni nihoyasiga yetkazish mumkin emas. Mana shunda shoirga go'yo rang yordamga keladi. U o'zining holini sarg'aygan xazon yaprog'idan farqlamay qoladi.

*Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim.*

*Ko'rub rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrai zardi,*

Adabiyotshunos I. Haqqul ushbu matla' bilan boshlanadigan g'azalni - manzara g'azal, unda go'yo ikki yaratuvchi-ikki suvratkash ishtirok qiladi: biri - tabiat, ikkinchisi - shoir, deydi. Chindan ham shunday. Bu "Xazon yaprog'i" iborasi alohida olinganda ham lirik qahramon ahvolini sharhlaydi. Zotan, hijron dardi u tufayli uning chehrasi sarg'ayganki, qismati ham "xazon yaprog'i"ga o'xshash. Ayni paytda buni yorning gul yuzi, lola kabi gulgun chehrasi bo'rttirib namoyon etadi. Bu o'rinda boshqa bir jihatni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Chunki Boburda kuz fasli, ayniqsa, xazonrezlik manzaralariga qandaydir bir oshuftalik bo'lgan. "Boburnoma"da ushbu fikrni tasdiqlaydigan ko'plab qayd va ifodalar mavjud. Masalan: "Bog'i Vafog'a se bargazor, anor daraxtlari sap-sarig' xushrang xazon bo'lubtur": "Dushanba kuni xazon sayrig'a Istalifg'a borildi"; "...Istarg'achda bir yaxshi xazonliq bog'da tushub, suhbat tutuldi" vahakazo. Demak, xazon va sariq rangning Bobur she'rlaridan keng o'rin egallashiga tabiat ham ta'sir ko'rsatgan. G'azalning navbatdagi baytini o'qiymiz:

*Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,*

*Ayog'ingg'a tushub bargi xazondek muncha yobbordim.*

Xazon yaprog'i - daraxtdan uzilgan yaprog. Ma'shuqa gulga o'xshasa-da, uning "sarkashligi" qaddi raso sarv kabidir. Oshiq sarv daraxti tagiga tushgan bargdek yor oyog'iga bosh urib yolvoradi. Bu holat ham sariq rang yordamida yoritib berilgan. Gul va xazon yaprog'i tazodi navbatdagi baytda davom ettiriladi:

*Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol,*

*Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim.*

Bu gapni yor bilan xayrlashuv deb tushunish ham mumkin, jonajon diyor bilan vidolashmoq deb qabul qilsa ham bo'ladi. Lekin "Latofat gulshani" – go'zallik gulshani, yor ana shu bo'stonning guli. O'zini xazon yaprog'i kabi his qilgan lirik qahramon yorga oldin yolvorgan bo'lsa, endi uning umri hech zavol ko'rmasligini tilaydi. Negaki uning qismati aniq: "Bu dahr bog'idin xazon yaprog'i yanglig'" ketish. Xo'sh el-ulus nima deydi? Mana shoiming javobi:

*Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda,  
Bahar range, bihamdilloh, ulusdin o'zni qutqordim.*

### 3.3. O'zbek va ingliz badiiy matnlarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining lingvopragmatik xususiyatlari

Yolg'izlik kasallik sifatida emas, balki muqarrar ravishda odamga hamroh bo'ladigan holat sifatida qaraladi. Biroq R.S. Veys yolg'izlikni patologiya emas, balki hayotdagi qiyinchiliklarga reaksiya holati va bu ijtimoiy

muvaffaqiyatsizlikning belgisi deb biladi. Bu R.S. Veysning bu qarashi amerika turmush tarzining atributi sifatida "ijtimoiy muvaffaqiyat" ga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. B. Miyuskovich yolg'izlik patologiya emasligini tushuntirib, R.S. Veys tushunchasini tanqid qiladi. Bu hodisa chuqur ekzistensial holat ekanligini ko'rsatadi. Bu insonning ontologik mohiyatiga daxldor bo'lib, uning o'zini anglashining ifodasidir. Ushbu fikr shunisi bilan muhimki, insonning yolg'izlikni yengish qobiliyati uning ongiga bog'liq. R.S. Veysning yolg'izlikni o'rganish klinik xarakterga ega bo'lib, u ajrashgan va beva ayollar uchun seminarlar tashkil etgan. Uning tadqiqotlari yolg'izlikni insonga xos hodisa sifatida tasvirlaydi, uning sabablari esa shaxsning ichki holatiga hamda tashqi vaziyatga bog'liqdir. R.S. Veys modeliga ko'ra, yolg'izlikning asosiy sabablari shaxs boshdan kechirayotgan voqealar bilan bog'liq bo'lgan vaziyat belgilaridir. Ushbu model zamonaviy tizimlar nazariyasiga, xususan I.G. Millerning tizimlari nazariyasiga asoslangan. I.G. Millerning ishi tirik tizimlarni o'rganishda ishlatilishi mumkin bo'lgan umumiy konseptual doiralarni yaratadi. Bu turli xil tizimlarning, masalan, supertizimlar, sistemalar yoki parallel tizimlarning o'zaro bog'liqligini ko'rishga imkon beradi. Barqarorlik esa organizmning normal funksiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

Fikr-mulohaza mexanizmi bu barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmida ijobiy va salbiy aloqa turlarining roli mavjud. Ijobiy aloqa tizimdagi muvozanatni tiklashga yordam beradi, salbiy aloqa esa tizimni yangi muvozanat holatiga yo'naltirish orqali o'zgarishga hissa qo'shadi.

Ernest Hemingway "A Clean, Well-Lighted Place" hikoyasida mazkur konseptni salbiy aloqa turini yaxshi izohlab bera oladi:

- *Fear for his soul.*
- *How much money has he got?*
- *He's got plenty.*
- *He must be eighty years old.*
- *Anyway I should say he was eighty.*

- *I wish he would go home. I never get to bed before three o'clock. What kind of hour is that to go to bed?*

- *He stays up because he likes it.*

- *He's lonely. I'm not lonely. I have a wife waiting in bed for me.*

- *He had a wife once too.*

- *A wife would be no good to him now.*

- *You can't tell. He might be better with a wife.*

- *His niece looks after him. You said she cut him down.*

- *I know.*

- *I wouldn't want to be that old. An old man is a nasty thing.*

- *Not always. This old man is clean. He drinks without spilling. Even now, drunk. Look at him!*<sup>108</sup>

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, atrof-muhitning reaksiyasiga e'tibor bermasdan, yolg'izlikni yetarli darajada tasvirlash juda qiyin. Natijada, olimning fikriga ko'ra, yolg'izlikni ko'p faktorli tahlil qilish kerak. Shunday qilib, yolg'izlik odamga inson aloqalarining maqbul darajasini saqlab qolishga yordam beradi, bu esa adaptiv teskari aloqa mexanizmi bo'ladi.

Shubhasiz, I.P. Flanders modeli yolg'izlikning ko'plab funksional ekvivalent, ammo konseptiologik jihatdan har xil shakllarini tavsiflash uchun juda mos keladi. Masalan, odam yolg'izlikni boshdan kechirayotgan bir paytda turli xil his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi yolg'izlik atributlari sifatida aniqlanishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy o'zaro ta'simning istalgan va erishilgan darajasini yoki uni o'rnatishdagi muvaffaqiyatsizlikni tahlil qilish mumkin bo'ladi. Ushbu konseptiyaga ko'ra, yolg'izlik ogohlantirish tizimi sifatida qaraladi. U mavjud muvozanat tizimini tiklash va barqarorlashtirishga qaratilgan. Ushbu funktsiya "salbiy aloqa" deb ataladigan narsa yordamida amalga oshiriladi. Yolg'izlik konsepti yordamida shaxs muvozanat holatini yaxshilashi mumkin, chunki

<sup>108</sup> Hemingway, E. A Clean, Well-Lighted Place - In: Hemingway, E. Winner Take Nothing. - New York: Charles Scribner's Sons, 1933. - P. 349-355

yolg'izlik motivatsion kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu funktsiyaga "ijobiy aloqa" deb ataladigan narsa orqali erishiladi.

Flanders uchun yolg'izlik patologik hodisa emas. U yolg'izlikni mavjud muvozanatning yetishmasligi deb biladi. Ushbu kamchilik har qanday tizim darajasida ifodalanishi mumkin. Ushbu model yolg'izlik, teskari aloqa mexanizmining bir turi bo'lib, printsipl jihatdan tuzatib bo'lmazligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, u inson farovonligiga hissa qo'shadi. Tizim nazariyasi nafaqat xatti-harakatlarning motivlarini tushuntiradi, balki yolg'izlik tuyg'usini yengillashtirishning ba'zi usullariga ham ishora qiladi.

Erkin A'zamning "Yolg'iz" qissasida ham arab tilidan o'zlashagan yolg'iz so'ziga ma'nodosh "fard" tushunchasi qo'llangan:

– Yo, alhazar! – deya nola chekib yubordi Abdulla qariyb tovush chiqarib. – Hushimdan ketib qolmay-da. O'zing madad ber, o'zing! O'zing bor – fardlik begona bandangga, Parvardigor! O'zing asra!

– Ilonni asfalosofilinga jo'natgan mashimi?

Abdulla tushunmadi, vaholanki, juda tanish so'z-ku – Ilon. Nima?! Qayoqqa jo'natgan?! Nega u jo'natadi Ilonni asfalosofilinga?! Qanday qilib?!

– Buni yozuvchi deb, g'ippa bo'g'ishga qo'li bormagan u so'takning. Bu esa uni ayab o'tirmagan – tinchitgan-qo'ygan! Qorong'i burchakda g'o'ng'illagan, to'ng'illagan, serqavat qo'lansa so'zlar burqsidi. – Abdullaning boshi, boshi aralash ko'zi, ko'zi aralash shuuri jazillab achisha ketdi. – Beri ke, turqingni ko'rsat! (Yolg'iz)

Erkin A'zam nasriy matnlarda inson yolg'izligi va hijron tushunchalarini yorqin tasvirlaydi. Hikoyaning nomi ham u qanday tuyg'u haqida ekanini ko'rsatadi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o'zbek mentalitetida inson yolg'iz qolmasligi, yolg'iz yurmasligi lozim.

O'zbek nasriy asarlarida ham yolg'izlik va ayriliq tushunchalari badiiy talqin qilinadi. Masalan, Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida Bayna momoning yolg'izligi quyidagicha tasvirlandi: "U ba'zida qishloqdoshlarini ochiq masxara qilardi: "E, senmisan, Salom ko'sa, xotiningning ishtonini kiyib

yuribsanmi deyman". "Hakim otchopormisan, buncha urg'ochi baytalga o'xshab qiyshanglaysang..."; "Bu qishloqning ayollari endi faqat xezalak tug'adi". Bu masxara va nafrat yillar o'tishi bilan Bayna momoni qishloqdan butunlay ajratib qo'ydi. Endi u yolg'iz va kimsasiz qoldi. Uni oylab birov yo'qlamas, faqat ertalab echkilarini yulg'unzorga haydab, borayotganidan, kechqurunlari qishloqni tutgan qaynayotgan sut hididan hali uning tirik ekanini bilishardi. Bayna momo o'z yolg'izligi va musibatini hayotning badbo'y, zabun, xor etilgan hidlari anqib yotgan yillar dahlizidan etaklab o'tdi. Qishloqdoshlari bahor kelishi bilan eski yaylovlarga ko'chib chiqishar va er shudgorlar, har kim o'z tashvishiga berilib ketardi. Qishloqda qolgan Bayna momo esa bu paytda yolg'izlik dashtini shudgorlar, u erga har yili Zamon otboqar hukumat odamlari bilan kelib, eri va o'g'lini o'tib tashlagan oqshomni ekar va so'ng yolg'iz o'zi hosilini ham yig'ib olardi. Bayna momo har kecha ko'z yoshlari bilan to'lgan qayiqda yillar qoyalari orasida qolib ketgan eri bilan o'g'lining ilma-teshik bo'lgan murdasi va Zamon otboqarning muzaffar qamchisi yotgan qonli halqob bilan to'lgan ayvonga suzib borar, ertablari ho'l bo'lib ketgan yostig'ini xuddi qadim ajdodlarning umut yaloviday uyining oldidagi- oradan yillar o'tgach, uyini buzayotganlar qo'porib tashlashga kuchlari etmagach, qovlab olishga majbur bo'lgan- baland tolga osib, oftobda quritardi. Qish paytlari g'amlab qo'ygan o'tini etmagan kunlari u ko'rpaga oyog'ini tiqqancha xotirasiga isinib jon saqlardi".

"Hijron" (ajralish, yo'qotish) konsepti o'zbek badiiy matnlarida muhim lingvopragmatik ahamiyatga ega bo'lib, u ko'plab adabiy va og'zaki ifodalar orqali o'z aksini topadi. Ushbu konsept insonlar o'rtasidagi munosabatlar, ichki iztiroblar, sevgi va qayg'u kabi nozik his-tuyg'ularni ifodalashda qo'llaniladi. Lingvopragmatik nuqtayi nazardan, "hijron" konsepti – nafaqat tilni shakllantirishda, balki tilning ijtimoiy va madaniy vazifalarini bajarishda ham muhim o'rin tutadi. Bu konsept ko'pincha ma'no va vaziyatga bog'liq holda turli xil til vositalari yordamida ifodalanadi.

Hijron tushunchasining lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilayotganda, quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

O'zbek adabiyotida hijron konsepti ko'pincha muayyan hissiy holatni yoki kishilar o'rtasidagi bog'lanishni ifodalashda ishlatiladi. Misol uchun, maqollar va matallarda ajralish yoki yo'qotishning ma'nosi va ta'siri ko'rsatiladi. Bu erda til vositalari, asosan, odamning ruhiy holatini yoki ijtimoiy tajribasini anglatish uchun ishlatiladi. O'zbek xalq maqollarida hijronning ruhiy ta'siri aks ettiriladi: "Yolg'izlik – o'z yuraginging iztirobi", "Ayriliq dardi – yelg'in bo'lib to'kilgan yoshlar".

Hijron konsepti badiiy matnlarda ko'pincha majoziy ifodalar, metaforalar, o'xshatish kabi badiiy vositalar yordamida ta'riflanadi. Masalan, Zulfiyaning she'riy asarlarida sevgi va ayrilqini ifodalashda "yurakdagi og'riq" yoki "g'amgin qalb" kabi obrazli iboralar ishlatiladi. Bu badiiy tasvirlar orqali, hijronning chuqur ruhiy holatini o'quvchiga yetkazish maqsad qilinadi.

Hijron tushunchasi ko'pincha kontekstga bog'liq holda shakllanadi. Agar ajralish ijtimoiy holat bilan bog'liq bo'lsa, unda bunday hollarda tilning pragmatik ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri tuzilmaviy kontekstga bog'liq bo'ladi. Tilda pragmatik xususiyatni aniqlashda ajralishning sabablarini va uning oqibatlarini inobatga olish zarur.

Hijron, shuningdek, ijtimoiy va emotsional aloqalar bilan ham chambarchas bog'liq. Masalan, biror shaxs ajralishdan qayg'u, o'zini yo'qotish hissi, yoki sevimli odamning yo'qligini his qilish kabi emotsiyalarni ifodalaydi. Bu holatlarda til vositalari hissiy reaksiyalarni va kommunikativ maqsadlarni aniqlashda yordam beradi.

Britan faylasufi va tilshunos, lingvistik pragmatika asoschilaridan biri J.L. Ostin. Uning ishlari, jumladan, "How to do things with Words" (1962) zamonaviy tilshunoslik, falsafa va kommunikatsiya nazariyasiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Hijron konsepti o'zbek badiiy matnlarda turli lingvopragmatik vositalar orqali, jumladan, ma'no, kontekst, badiiy obraz va tilni ishlatish orqali ifodalanadi. Ushbu konseptning tilshunoslikda tahlil qilinishi uning chuqur emotsional, ijtimoiy va psixologik ta'sirini anglashga yordam beradi. Hijron tushunchasini o'rganish,

nafaqat tilshunoslikda, balki psixologiya, adabiyotshunoslik va pragmatika sohalarida ham muhim ahamiyatga ega.

Badiiy matnlarda "hijron" (ajralish, yo'qotish) konseptining ifodalanishi, ayniqsa, romanchilar, hikoyachilar va dramaturglarning asarlarida o'z aksini topadi. Ushbu badiiy matnlarda hijronning ta'siri, insonning ichki azoblari, ruhiy holati, ajralishning turli shakllari tasvirlanadi. Quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz.

O'tkir Hoshimovning "Yolg'izlik" qissasida hijron va ajralishning psixologik holati tasvirlangan. Asarda ajralish, o'zaro munosabatlardagi notekislik, insonning ruhiy iztiroblari juda aniq ko'rsatiladi. O'Hoshimov asarida, bosh qahramonning yolg'izligi, sevganidan ajralganidan keyin ichki iztirobini tasvirlaydi.

*"Boshqa joyda, boshqa o'rtada, boshqa odamlar bilan bo'lish, ammo qalbingda iztirob va yolg'izlikni his qilish. Yolg'izlikni boshdan kechirgan inson, boshqa hech narsa bilan ham bu dardni yengishga qodir emas"*<sup>109</sup>.

Bu jumlar orqali yolg'izlik so'zi yordamida hijronning ruhiy ta'siri, ajralishning og'irligi va inson qalbidagi bo'shliq tasvirlanadi.

Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan "O'tkan kunlar" romanida ham hijron konsepti o'z aksini topadi. Bu romanda bosh qahramon Otabekning sevganidan ajralishi, uning qalbida yuzaga kelgan iztirob va qayg'u, yolg'izlikni chuqur tahlil qilinadi. Otabek sevganini yo'qotganidan keyin o'zini yolg'iz va tashqariga qarab muomala qilishda qiynaladi.

"Hijron" so'zi "firoq" so'ziga ham sinonim bo'lib kelishi bizga ma'lum. Nodirabegimning hijron haqidagi she'rlari orasida «Firoqnom» asari kuchli tug'yonlari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu she'r ijodkorning hayotidagi og'ir judolik va u tufayli shoira qalbida paydo bo'lgan iztiroblarni tasvirlaydi. She'rda firoq iskanjasida to'lg'anayotgan qalb, falak sinovlari oldida ojiz-u notavon oshiq holati g'oyat ta'sirli ch'izilgan.

*Ohkim, behad menga javr-u jafu aylar falak,*

*Furqat ichra qismatim dard-u bala aylar falak,*

<sup>109</sup> Hoshimov O'. Yolg'izlik. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 1985. – B. 56.

Yordin ayru menga ko'p mojaro aylar falak,  
 G'am bila guldek yuzumni kahrabo aylar falak,  
 Bevafo dur, oqibat kimga vafo aylar falak,  
 Hasrat-u dard-u alamga muftalo aylar falak,  
 Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,  
 Gul bila bulbulni be barg-u navo aylar falak,  
 Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,  
 Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.

"Ohkim, behad menga javr-u jafu aylar falak..." ushbu satrdan boshlab she'rdagi falakka murojaat qilish shakli orqali qismatga, taqdirga norozilik ifodalanadi. "Falak" so'zi bu yerda inson taqdirini belgilovchi, mehsiz kuch sifatida obrazlashadi. U o'zbek madaniyatida ko'pincha "beqaror, g'amli dunyo"ning ramzi sifatida uchraydi.

Hijron – sevgilidan, suyuqli insondan ayrilish holati bo'lib, ushbu she'rdagi aynan shu holat bir necha badiiy vositalar orqali ifodalangan, masalan, "Yordin ayru menga ko'p mojaru aylar falak" – bu satrda "yor"dan ayrilish natijasida kelib chiqadigan ruhiy azob "mojaru" ya'ni ichki urinish sifatida tasvirlangan.

"Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak" – bu yerda "yor" va "judo" so'zlari semantik jihatdan hijron konseptining markaziy tayanch birliklaridir. She'r davomida hijron insonni qanday ruhiy iztirobga solishi ko'rsatilgan: "G'am bila guldek yuzumni kahrabo aylar falak" – Yuzning guldek chiroyidan ayrilishi orqali g'am, hijronning tashqi ko'rinishiga ta'siri ko'rsatilgan. "Kahrabo" sarg'ish tus, so'lg'inlik, iztirob belgisi.

"Falak" Sharqiy madaniyatda ko'pincha "taqdir, qismat, osmon bilan bog'liq" tushuncha. O'zbek she'riyatida u aksar hollarda bevafo, mehsiz kuch sifatida tasvirlanadi (Farhod, Layli, Majnun dostonlarida ham shunday). "Yor" o'zbek va fors-tojik madaniyatida nafaqat "sevgi" obyekt, balki "ilohiy ma'shuq" tushunchasini ham anglatadi. Bu o'rinda hijron faqat shaxsiy emas, balki ilohiy ajralish sifatida ham talqin qilinadi.

Badiiy matnlarda hijron tushunchasi asosan ajralish, sevganidan yo'qotish yoki yolg'izlik kabi nozik ruhiy holatlarni tasvirlashda qo'llaniladi. Hijronning ta'siri, asarlarning semantik tuzilishida va personajlarning emotsional holatlarida aniq ifodalanadi. Badiiy matnlar orqali bu konseptning ifodalanishi til, kontekst va psixologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Matnlardagi hijronning tasviri ijtimoiy va ruhiy o'zgarishlarni, shuningdek, insoniyatning ajralishdan kelib chiqqan chuqur iztirobini aks ettiradi.

Hijron (ajralish, yo'qotish) konsepti ingliz badiiy matnlarida ham keng qo'llaniladi.

Emily Brontening "Wuthering Heights" asaridan olingan quyidagi parchada Heathcliffning sevganidan ajralishi, uning ichki iztirobi va ruhiy jismoniy holati aks etadi. "Ruhimni yo'qotib yashay olmayman!" degan ibora uning ajralish tufayli yuzaga kelgan shaxsiy hijronni ifodalaydi.

"I cannot live without my soul!" – *Heathcliff's desperate cry as he expresses his emotional devastation after the loss of Catherine. His declaration reflects how deep and consuming the separation is to his very existence, symbolizing the emotional rupture caused by his unfulfilled love.* (Men ruhsiz yashay olmayman!) – Heathcliffning sevganidan ajralishidan keyin uning qanchalik chuqur va befarq ruhiy holatga tushganligini, o'sha ajralish uning barcha mavjudligini qanday yutib yuborishini tasvirlaydi. Bu ibora uning ruhiy hijronining tasviridir.

Uilliam Shekspirning "Romeo and Juliet" asarida hijron quyidagicha talqin etilgan: "Parting is such sweet sorrow". Ushbu ibora qisqaligi va qarama-qarshilikdagi ma'nosi bilan yurakni larzaga soluvchi kuchli ifodasi mavjud. Shekspir bu yerda oksimoron uslubidan foydalangan, ya'ni "sweet" (shirin) va "sorrow" (g'am) bir-biriga zid ma'nodagi so'zlar. Bu qarama-qarshilik aslida hayotdagi murakkab tuyg'ularni ifodalaydi. Biz sevikli insondan ajralganimizda yuragimiz eziladi, ammo shu bilan birga u bilan bo'lgan lahzalar, xayrlashuvdagi mayin so'zlar, ko'zlar suzishgan nigohlar ham qalbimizda iliqlik qoldiradi. Shuning uchun bu g'am shirin tuyuladi. Bunda faqat sevgi emas, balki inson qalbining nozikligini, chuqur his-tuyg'ularni qadrlashni ifodalaydi. Bu so'zlar orqasida

shunday bir ruhiy holat yotadiki, u faqat sevgan va ayriligni boshdan kechirgan odamga tanish bo'lishi mumkin.

Virginia Wulfning "Mrs Dalloway" asarida hijron "*She had the feeling that she was not exactly in the right place, that there was something wrong in the world, and that she was disconnected from the past. – Clarissa Dalloway's feeling of emotional isolation, torn between the past and present, highlights the separation she feels from her previous relationships and the choices she made*" (U o'zini to'g'ri joyda emasligiga, dunyoda bir narsa noto'g'ri ekanligiga va o'tmish bilan bog'lanmaganligiga his qilgan edi). – Clarissaning o'zining ichki tuyg'ularidan va o'tmishdagi yo'qotishlaridan kelib chiqqan hijron hissi tasvirlanadi. Bu so'zlar uning o'zini kelajakka bo'sunmagan holda yashashini bildiradi). deb tasvirlangan. Bu parchada Clarissaning o'tmish va hozirgi o'rtasida tug'ilgan izolyatsiya va qiyinchiliklar tasvirlanadi. Uning o'tmishdagi yodgorliklari bilan bog'lanishdagi qiyinchiliklar hijronning bir shakli bo'lib, psixologik ajralishni aks ettiradi.

Yuqoridagi misollar ingliz badiiy matnlarida hijron (ajralish, yo'qotish) konseptining qanday ifodalanishini ko'rsatadi. Har bir asarda hijronning inson ruhiyati, o'z-o'zini anglash va o'tmishdagi yo'qotishlar bilan bog'liq turli psixologik holatlar orqali aks etirilgan. Bu his-tuyg'ular asarlarning asosiy temalaridan biri bo'lib, personajlarning ichki iztiroblarini chuqur ifodalash imkonini beradi.

Hijron tushunchasi, ya'ni ajralish, yo'qotish va ruhiy iztirob, o'zbek va ingliz adabiyotlarida bir xil asosiy hissiyotlarni ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa-da, ularning badiiy ifodalanishida va tilshunoslikda ba'zi o'xshashliklar va farqlar mavjud.

O'zbek adabiyotida hijron ko'pincha aniq ma'no va tasvirlar orqali ifodalanadi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Yolg'izlik" qissasida, yolg'izlik va ajralish hissi bilan bog'liq ruhiy holatlar tasvirlanadi. Bu yerda hijron, ya'ni sevgan insondan ajralish, qalbdagi bo'shliq va iztirobni keltirib chiqaradi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida ham ajralishning inson qalbiga ta'sirini chuqur tahlil qiladi, Otabekning sevganidan ajralib, o'zini yolg'iz va tashqariga muomala qilishda qiynalishini tasvirlaydi. Ushbu misollar, o'zbek adabiyotida hijronning chuqur,

shaxsiy ruhiy holat sifatida ifodalanganligini ko'rsatadi. Ular ko'pincha yirik, zamonaviy hissiy aloqalar va ichki iztiroblar orqali aks ettirilgan.

Ingliz adabiyotida ham hijronning tasviri juda ko'p uchraydi, ammo ularning ifodalanish tarzida ba'zi farqlar mavjud. Masalan, Emily Brontening "Wuthering Heights" asaridagi Heathcliffning sevganidan ajralishidagi hissiy zarba "Men ruhimsiz yashay olmayman!" kabi badiiy tasvirlar orqali ifodalangan. Bu ibora nafaqat ajralishning og'irligini, balki uning insonning mavjudligiga ta'sirini ham ko'rsatadi. Bundan tashqari, ingliz adabiyotida hijron ko'pincha ijtimoiy va psixologik jihatlarga, masalan, o'z-o'zini anglash, o'tgan va hozirgi o'rtasidagi uzilish kabi tushunchalarga bog'liq tarzda ishlatiladi. Virginia Woolfning "Mrs Dalloway" asarida, Clarissa Dallowayning o'tmish va hozirgi o'rtasidagi uzilish hissi orqali hijron tasvirlanadi. Bu, o'zbek adabiyotidagi ajralish va qayg'u tasvirlaridan farqli ravishda, yanada ichki, introspektiv tahlilni talab qiladi.

Shuningdek, o'zbek adabiyotida hijronning ko'p hollarda ijtimoiy holat, qiyinchilik yoki romantik ajralish bilan bog'lanishini ko'rish mumkin. O'zbek maqollarida "Hijron tortgan qalb, dunyo nurini unutadi" kabi iboralar, ko'pincha ijtimoiy muhit va jismoniy holatlar orqali ajralishning ruhiy oqibatlarini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi aforizmlar, masalan, "The pain of parting is nothing to the joy of meeting again" (Ajralishning og'irligi, yana uchrashishning quvonchiga nisbatan hech narsa emas) esa, ko'pincha vaqt o'tishi bilan ajralishning og'irligi kamayishi, lekin sevgi va qayta uchrashuvning qadrini oshirishi haqida so'z yuritadi. Bu ingliz adabiyotida ajralishdan keyingi salbiy his-tuyg'ularni ijobiy hislar bilan almashtirish tendensiyasini ko'rsatadi.

Yuqoridagi misollarni tahlil qilish orqali, o'zbek va ingliz adabiyotlaridagi hijron tushunchasining badiiy tasviri o'rtasidagi farqlarni ko'rish mumkin. O'zbek adabiyotida hijron ko'proq insonning ichki ruhiy iztiroblari, ajralishning chuqurligi va yolg'izlik bilan bog'liq tarzda ifodalanadi, ingliz adabiyotida esa hijron ko'proq ijtimoiy, ma'naviy va psixologik muammolarni aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bu ikkala adabiyotda ham hijronning chuqur hissiy ta'siri mavjud bo'lsa-da, uning ifodalash usullari va konteksti farq qiladi.

### Bob bo'yicha xulosalar

1. Yolg'izlikning ko'plab funksional ekvivalent, ammo konseptiologik jihatdan har xil shakllarini tavsiflash uchun juda mos keladi. Masalan, odam yolg'izlikni boshdan kechirayotgan bir paytda turli xil his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi yolg'izlik atributlari sifatida aniqlanishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy o'zaro ta'siming istalgan va erishilgan darajasini yoki uni o'rnatishdagi muvaffaqiyatsizlikni tahlil qilish mumkin bo'ladi.

2. Yolg'izlikni boshdan kechirish muammosini hisobga olgan holda quyidagilarni ta'kidlash kerak: yolg'izlik tajribasining hissiy tarkibiy qismiga nisbatan, bu tajribani aks ettirish, anglash va keyinchalik konseptual birliklarda mujassamlanish uni amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, "yolg'izlik" atamasining mazmunli analoglarini aniqlash nuqtayi nazaridan bir nechta qarashlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ularni mazmunli mantiqqa muvofiq qurish orqali biz eng "yumshoq variant" "yolg'izlik" tushunchasi ekanligini aytishimiz mumkin. Buning ortidan yolg'izlikni ikki tomonlama holat sifatida ko'rib chiqish kerak, keyin biz o'tkir hissiy tajriba haqida gapiramiz va yakuniy ta'rif "yolg'izlik holati"ni izolyatsiya variantiga kamaytirishdir.

3. Bobur va boshqa ijodkorlarning she'riy asarlarida "hijron" va "yolg'izlik" tushunchalari serqirra ifodalangan. Ayniqsa, vatandan yiroqda yashaganligi uchun Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ayriliq, yolg'izlik, begonalik sezilib turadi.

4. O'zbek adabiyotida yolg'izlik tasvirlangan asarlar ham ko'p, ular orasida ayniqsa, Erkin A'zamning "Yolg'izlik" hikoyasi muhim o'rin tutadi, ingliz adabiyotida Ernest Hemengueyning "Chol va dengiz" romani yolg'izlikni tom ma'noda aks ettirgan deyish mumkin, umuman, badiiy asarlar konseptlarni ifodalovchi eng muhim kontekst hisoblanadi.

5. Ingliz adabiyotida hijronning tasviri juda ko'p uchraydi, ammo ularning ifodalanish tarzida ba'zi farqlarlar Emily Brontening "Wuthering Heights" asaridagi Heathcliffning sevganidan ajralishidagi hissiy zarba "Men ruhimsiz yashay olmayman!" kabi badiiy tasvirlar orqali ifodalangan bo'lsa, Uilliam Shekesperning

"Romeo va Julietta" asarida esa Julettaning aytgan "Parting is such sweet sorrow" iborasi orqali u inson qalbining nozikligini, chuqur his-tuyg'ularni qadrlashni ifodalaydi.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Lingvokulturologik tadqiqotlar negizida turli madaniyatlarda tilning roli, lingvomadaniy birliklarning voqelanish shakli, tarjima jarayonida muvofiqlikni ta'minlash, tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o'zaro aloqasi va kesishmasidagi muammolarni o'rganish, bartaraf etish, yangi tendensiyalarni ishlab chiqishga asoslanadi.

2. Konsept – murakkab strukturaga ega bo'lgan mental tushuncha. Lingvokulturologik tadqiqotlarda konsept asosiy tushunchalardan biri sifatida olam va uning komponentlarining lisoniy strukturadagi yaxlit, keng qamrovga ega obrazini tasvirlovchi vosita bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

3. Ingliz tilida “yolg'izlik” konseptini aks ettiruvchi lingvistik ifoda vositalari muloqotda salmoqli o'rin tutadi. Tilning frazeologik, paremiologik, aforizmlar fondida “hijron”ga she'riy diskurslar ustunlik qiladi. O'zbek tilida esa, ushbu tushuncha keng mohiyatda qo'llaniladi. Yolg'izlik, hijron she'riy, nasriy va folklor janrlar mazmunida qo'llanib, umumiylik kasb etishi ochib berildi.

4. Ingliz va o'zbek tillarida “yolg'izlik” konseptiga ega bo'lgan “beganalik”, “yakkalik”, “uzlatga chekinish”, hamda “hijron” konseptiga ega bo'lgan “ayriliq”, “judolik”, “firoq” tushunchalarining mohiyatini izohlovchi yadroviy leksemalar va ularga sinonim tushunchalar tarkibi aniqlandi.

5. Lingvokulturologik birliklarning jahonda o'rganilishi, olamning lisoniy manzarisida voqelanish shakllari har ikki tilda umumiy va farqli jihatlar asosida ko'rsatildi. Stereotiplarda ikki madaniyatga xos bo'lgan va bir-biriga mazmunan tamoman qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlanib, tahlillar va misollar orqali ko'rsatildi.

6. “Yolg'izlik” va “hijron” konseptlari bilan bog'liq leksik birliklarning lisoniy modellari ishlab chiqildi. Ingliz tilida faol qo'llaniluvchi “ayriliq/hijron” konseptosferasiga kiruvchi leksik birliklarning lisoniy qoliplari aniqlandi va misollar bilan asoslandi.

7. “Yolg'izlik” konseptosferasida qiyidagi yirik sfera: beganalik, tarkidunyochilik, ayriliq va uzlatga chekinish tushunchalari mavjud bo'lib, qolgan konseptosfera tarkibiga kiruvchi leksema, frazema, paremiyalar ayni shu uch yirik sferadan kelib chiqadi.

8. Qiyoslanayotgan tillarda “yolg'izlik” va “hijron” konsepti insonlarning hayot ma'nosini anglash, o'zlikni tanish, o'zini o'zi taftish qilish uchun zarur bo'lgan psixologik jarayon hisoblanadi.

9. Yolg'izlik tushunchasiga yana bir yaqin bo'lgan tushuncha beganalashish bo'lib, u mutaxassislar tomonidan jamiyatdagi qadriyatlar, me'yorlarning qabul qilmaslik kabi shaxsning ma'naviy orientirlari qatoriga kiritiladi va individning ichki ruhiy olamidagi erkinlikning chegaralanishi deb qaraladi. Tadqiqotchilar yolg'izlik fenomenini tahlil qilishda ikkita tendensiyani; biri salbiy yo'nalishdagi, ikkinchisi ijobiy yo'nalishdagi yolg'izlikni ajratishadi.

10. Inson turmush tarziga yolg'izlik va hijron/ayriliq hissining ta'siri masalasini aniqlashtirish yolg'izlikni antinomik ko'rinishda tahlil qilishga imkon beradi, bir tomondan shaxsning destruktiv bosqichi sifatida, ikkinchi tomondan yaratuvchanlik sifatidagi o'z-o'zini anglash bosqichini namoyon qiladi. Qarashlardagi turli-tumanlik esa hozirgi kunda yolg'izlik fenomenologiyasi va psixologik mexanizmlarining yetarli darajada o'rganilmaganligidan dalolat beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 592 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimiz taraqqiyoti poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 64 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 80 b.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорлари. – Тошкент, турли йиллар.
12. Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссиясининг “Илмий ишларда библиографик кўрсаткичларни расмийлаштириш бўйича услубий кўрсатмалар”. – Тошкент, 2020. – 32 б.

## II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

### 1) Milliy nashrlar

13. Абдуллаева З. Семантика ва когнитив лингвистика. – Тошкент: Фан, 2019. – 210 б.
14. Ахмедова Д.Ф. Тилшуносликда антропоцентрик парадигма. – Тошкент: Университет, 2018. – 185 б.
15. Бобожонов Ш. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – 276 б.
16. Жуманиёзов Х. Ўзбек тилшунослигида семантик майдон назарияси. – Тошкент: Фан, 2010. – 312 б.
17. Қуронов Д. Структур тилшунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2011. – 230 б.
18. Мадрахимова Н.Ф. Ўзбек тилида метафора ва метонимия. – Тошкент: Фан, 2015. – 224 б.
19. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. – Тошкент, 1999. – 212 б.
20. Маматов А.Э. Замонавий лингвистика. – Тошкент: Noshir, 2019. – 320 б.
21. Назаров С.Ф. Ўзбек тили семаснологияси. – Тошкент: Фан, 2009. – 198 б.
22. Норкулов А.Ф. Фразеологик бирликлар назарияси. – Тошкент: Фан, 2004. – 266 б.
23. Сапаева З.Ж. Фразеологик бирликларнинг когнитив аспектда қисий тахлили. – Тошкент: Фан, 2023. – 220 б.
24. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Санзор, 2006. – 180 б.
25. Сафаров Ш. Прагматингвистика. – Тошкент: Университет, 2008. – 240 б.
26. Сафаров Ш. Сўзшунослик ва маъношунослик. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2010. – 198 б.
27. Сафаров Ш. Сўз маъноси ва нутқ талқини. – Тошкент: Universitet, 2013. – 210 б.
28. Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик луғат. – Тошкент, 1989. – 156 б.

29. Содикова М. Фразеология ва матн лингвистикаси. – Тошкент: Fan, 2016. – 265 б.
30. Усмонова Ш. Лингвокултурология. – Самарканд, 2012. – 120 б.
31. Ҳамроев Б.Ў. Тил ва тафаккур муносабати. – Тошкент: Фан, 2006. – 256 б.
32. Хожиев А. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. – Тошкент: Фан, 1982. – 354 б.
33. Хўжамқулов Х. Ўзбек тили семантик тузилишининг назарий асослари. – Тошкент: Universitet, 2019. – 276 б.

## II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

### 2) Xorijiy nashrlar

34. Barcelona A. Metaphor and Metonymy at the Crossroads. – Berlin; N.Y.: Mouton de Gruyter, 2000. – 310 p.
35. Croft W., Cruse D.A. Cognitive Linguistics. – Cambridge: CUP, 2004. – 356 p.
36. Elliot E. Loneliness as a gift. – Theological Review, 1987, №3. – P. 45–52.
37. Elliot E. The Phenomenology of Loneliness. – Philosophy Today, 1990, №4. – P. 67–74.
38. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 830 p.
39. Fillmore Ch. Frame Semantics. – Linguistic Society of Korea, 1982. – P. 111–137.
40. Gibbs R. The Poetics of Mind. – Cambridge: CUP, 1994. – 452 p.
41. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: OUP, 2010. – 386 p.
42. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.
43. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
44. Langacker R.W. Concept, Image and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. – Berlin; N.Y.: Mouton de Gruyter, 1991. – P. 28–33.

45. Likhachev D.S. Kontseptosfera russkogo yazyka. In: Russkaya slovesnost. – M.: Academia, 1997. – S. 280–288.
46. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. – М., 1997. – 320 с.
47. Lippman W. Public Opinion. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1922. – P. 104.
48. Locklin R.B. Short Reflection Paper: Becoming Human. – March 8, 2017.
49. Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода. – Архангельск, 1997. – 256 с.
50. Маслакова Е.А. Теоретические и прикладные проблемы... – М., 2012.
51. Маковский М.М. Language – Myth – Culture. – Moscow, 2014. – 320 с.
52. Malinowski B. Dynamika przemian kulturowych. Studium stosunków rasowych w Afryce. – Warszawa, 1958. – S.165.
53. Мартынова А.Н. Пословицы. Поговорки. Загадки. – М.: Современник, 1986. – 510 с.
54. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
55. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. – Minsk: TetraSystems, 2005. – 256 p.
56. Maslova V.A. Kognitiv tilshunoslik. – Samargand, 2012. – 89 b.
57. Mazurenko E.A. Yolq'izlik: Insonning ekzistensial holati. – Noshir, 2006. – P. 19.
58. Mechkovskaya N.B. Language and Religion. – Moscow: FAIR, 1998. – 276 p.
59. Meider W. Proverbs: A Handbook. – London: Greenwood, 2004. – 280 p.
60. Мокшенок В.М. Большой словарь русских пословиц. – М.: ОЛМА Медиа Групп, 2010. – 1024 с.
61. Norrick N.R. How Proverbs Mean? Semantic Studies in English Proverbs. – Amsterdam: Mouton, 1985. – 256 p.
62. Palmer S. Fundamental aspects of cognitive representation. – Lawrence Elbaum Associates, 1978. – Pp. 259–303.
63. Popova Z.D., Sternin I.A. Cognitive linguistics. – Moscow, 2007. – P. 45–46.

64. Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж: ВГУ, 2000. – 246 с.
65. Rogers K. On Becoming a Person. – Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.
66. Rubert I. Mythologeme as a Sign in the System of Cultural Concepts. – Siberian Federal University, 2015. – 180 p.
67. Sabitova Z.K. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 320 с.
68. Sapir E. Selected works on linguistics and cultural studies. – Moscow, 1993. – P. 259–265.
69. Sapir E., Whorf B.L. The Sapir-Whorf Hypothesis. In: Language, Thought, and Reality. – Cambridge, 1956. – P. 25–30.
70. Schröder P. Sprachliches Funktionieren und interaktive Funktion von Stereotypen. – Köln, 1987. – 210 S.
71. Sit A. The Psychology of Loneliness and Social Isolation (7th ed.). – Academic Press, 2015. – P. 160.
72. Слышкин Г.Г. От текста к символу. – М.: Академия, 2000. – 128 с.
73. Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты и метакоцепты. – Волгоград: Перемена, 2004. – 224 с.
74. Stavitskiy A.V. The Mythical Man... In: Gabrielyan O.A. et al. – M., 2019.
75. Syamili C., Rekha R. Developing an ontology for Greek mythology. – Electronic Library, 2018. – Vol. 36.
76. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics, Vol. 1: Concept Structuring Systems. – The MIT Press, 2000. – Pp. 104–118.
77. Vilimbakhova E.L. Materialy k kursu leksiy «Lingvisticheskoe izuchenie stereotipov». – Spb.: SPbGU, 2015. – 72 s.
78. Volkova T.N. Лингвопедагогическая культурология, ее предмет и место в системе научного знания. In: Novoe v prepodavanii russkogo yazyka. – Ivanovo, 1998. – S. 168–170.
79. Vorobyev V.V. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: РУДН, 1997. – 224 с.

80. Воркачев С.Г. Концепт “счастья”. – Краснодар, 2002. – 198 с.

#### V. Lug'atlar

81. Farlex Idioms Dictionary. – 2024.
82. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.
83. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 2008. – 712 б.
84. Uzbek Wikilug'at (Wikilug'at). – <https://uz.wiktionary.org>

#### VIII. Dissertatsiya va avtoreferatlar

85. Бакалдин С.В. Одночество и его связь с функциями «Я»: Автореф. дисс. ... к. пс. н. – Краснодар, 2008. – 26 с.
86. Вербницкая С.Л. Социально-психологические факторы переживания одиночества: Дисс. ... к. пс. н. – СПб., 2002. – 19 с.
87. Кдирбасва Г. Концепт «тагдир»нинг ўзбек ва қозок тилларида ифодаланиши. – Автореф. дисс. ... филол. фан. номз. – Тошкент, 2011. – 26 б.
88. Кдирбасва Г. Қиёсий тилшуносликда когнитив ёндашув. – Дисс. ... филол. фан. докт. – Тошкент, 2019. – 298 б.
89. Нарзуллаева Ф.О. Contrastive Analysis of the “Head” in English and Uzbek Languages. – PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – 158 b.
90. Курбонова Ш. Ўзбек тилида метафоранинг лингвокогнитив тахлили. – Дисс. ... филол. фан. номз. – Самарқанд, 2014. – 168 б.
91. Сафаров Ш. Когнитив тилшуносликнинг назарий асослари. – Дисс. ... филол. фан. докт. – Тошкент, 2005. – 320 б.
92. Sapayeva Z.J. Frazеologik birliklarning kognitiv aspektida qiyosiy tahlili. – PhD dissertatsiyasi. – Samarqand, 2023. – 145 b.

### IX. Ilmiy to'plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

93. Bobojonov Sh. Cognitive Aspects of Uzbek Phraseology. – Uzbek Linguistic Review, 2021, №2. – P. 55–63.
94. Elliot E. Loneliness as a gift. – Theological Review, 1987, №3. – P. 45–52.
95. Elliot E. The Phenomenology of Loneliness. – Philosophy Today, 1990, №4. – P. 67–74.
96. Narzullayeva F.O. “Head” komponentli frazeologizmlarning semantikasi. – “Filologiya masalalari” ilmiy to'plam, 2022, №2. – B. 101–109.
97. Nazarov S. Uzbek Phraseological Semantics: A Cognitive Approach. – Journal of Central Asian Linguistics, 2020, №3. – P. 88–97.
98. Sapayeva Z.J. Frazeeologizmlarning lingvokulturologik tahlili. – “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2021, №4. – B. 55–63.
99. Сафаров Ш. Ўзбек тилида когнитив моделлар. – “Филология масалалари”, 2012, №1. – Б. 14–22.
100. Қдирбаева Г. Тил ва tafakkurda “taqdir” konsepti. – “O'zbek tili va adabiyoti”, 2015, №2. – B. 45–50.

### X. Internet saytlari

101. Academia.edu – <https://www.academia.edu>
102. British National Corpus (BNC) – <https://www.english-corpora.org/bnc/>
103. Cambridge Core – <https://www.cambridge.org/core>
104. Cambridge International. Syllabus 2024–2026. – <https://www.cambridgeinternational.org/Images/635901-2024-2026-syllabus.pdf>
105. Corpus of Contemporary American English (COCA) – <https://www.english-corpora.org/coca/>
106. Encyclopaedia Britannica Online – <https://www.britannica.com>
107. Ethnologue: Languages of the World – <https://www.ethnologue.com>
108. Google Scholar – <https://scholar.google.com>
109. JSTOR Digital Library – <https://www.jstor.org>
110. LinguistList – <https://linguistlist.org>

111. My.edu.uz – O'zbekiston oliy ta'lim elektron tizimi. – <https://my.edu.uz>
112. National Corpus of the Uzbek Language – <https://corpus.uzbeklang.uz>
113. Oxford Academic Journals – <https://academic.oup.com>
114. Oxford English Dictionary Online – <https://www.oed.com>
115. ResearchGate – <https://www.researchgate.net>
116. ScienceDirect – <https://www.sciencedirect.com>
117. SpringerLink – <https://link.springer.com>
118. Taylor & Francis Online – <https://www.tandfonline.com>
119. Unbabel Blog (2019). Why Translating Idioms Is Hard. – <https://unbabel.com/blog>
120. Wiley Online Library – <https://onlinelibrary.wiley.com>

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KONSEPTUAL BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI.....</b>	<b>11</b>
§1.1. Jahon tilshunosligida lingvokulturologik birliklarning o'rganilishi.....	11
§1.2. Lisoniy birliklarning konseptual tadqiqi.....	26
§1.3. "Yolg'izlik" va "hijron" konseptlari etimologiyasi va semantik tabiati .....	41
Bob bo'yicha xulosalar.....	65
<b>II BOB. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "YOLG'IZLIK" VA "HIJRON" KONSEPTLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAQIQI.....</b>	<b>67</b>
§2.1. O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari .....	67
§2.2 O'zbek va ingliz tillarida "hijron/ayriliq" konseptining leksik-semantik xususiyatlari .....	78
§2.3. O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining lingvokulturologik talili.....	85
Bob bo'yicha xulosalar.....	96
<b>III BOB. O'ZBEK VA INGLIZ PAREMIYALARI VA BADIY MATNLARIDA "YOLG'IZLIK" VA "HIJRON" KONSEPTLARINING QO'LLANILISHI.....</b>	<b>97</b>
§3.1. O'zbek va ingliz maqollarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining ifodalanishi.....	97
§3.2. O'zbek va ingliz aforizmlarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining ifodalanishi.....	110
§3.3. O'zbek va ingliz badiiy matnlarida "yolg'izlik" va "hijron" konseptlarining lingvopragmatik xususiyatlari.....	123
Bob bo'yicha xulosalar.....	134
<b>XULOSA.....</b>	<b>135</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>137</b>

Muharrir: I.S.Mamajonov  
Texnik muharrir va sahifalovchi: S.A.Hojiyeva  
Nashrga ruxsat etildi: 04-12-2025 y.  
"Times New roman" garniturasida chop etildi.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №44-3/2025  
"INNOVATIVE PUBLICATION" bosmaxonasida chop etildi.  
Andijon viloyati, Baliqchi tumani, Samo ko'chasi 32-uy

